

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON JAHON TILLARI
UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK

LATIPOVA NARGIZA MURODOVNA

**XALQARO ALOQALARNI BILDIRUVCHI TERMINLARNING
LINGVOMADANIY HUSUSIYATI**

Lingvistika - 5A 120102(ingliz tili)

Magistrlik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ish ko'rib chiqildi va Ilmiy rahbar:

Himoyada tavsiya etiladi:

f. f. n. dotsent

Kafedra mudiri

f.f.n., dotsent M.R. Galiyeva

“ _____ ” 2016y.

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi. Tadqiqot ingliz rus va o'zbek tillarida siyoat sohasidagi maxsus leksikani tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqur ilmiy va nazariy tahlil etish, lingvokulturologiya kabi ilg'or fan yo'nalishlari orqali xalqaro aloqalardagi qo'llaniladigan siyosiy terminlarning lingvomadaniy tahlili, ularning tarix, tuzilishi va ahamiyatiga bag'ishlanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Xalqaro aloqalarda qo'llaniladigan terminlarning tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish, terminlarning ma'no va muhim xususiyatlarini aniqlash, maqsad va vazifalarini, ularning tildagi va madniyatdagi o'rni va ahamiyatini belgilashdan iborat.

Ilmiy ishning obyekti va predmeti. Xalqaro aloqalarda qo'llaniladigan turli mazmun ko'lamiga ega bo'lgan terminlar xizmat qiladi va xalqaro aloqalarda ishlatiladigan terminlarning strukturaviy semantik, kognetiv-konseptual va lingvomadaniy xususiyatlari xizmat qiladi.

Tadqiqot uslubi va uslublari. To'plangan materiallar hozirgi zamon tilshunoslik fanida keng qo'llanilayotgan qiyosiy-tarixiy, matematik-logik, struktural, paradigmatic va sintagmatik, diaxronik va sinxronik, tavsifiy, tahliliy, kognitiv, komponent hamda statistik va interpretatsiya metodlari yordamida tahlil etildi. Ishda sistematika va umumiy konseptual yondoshuvlar ham katta o'rin egalladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu. Tadqiqot ishi xalqaro aloqalardagi doir terminologik lug'atlarni va uslubiy qo'llanmalar yaratishda, shu yo'nalishdagi kelgusi tadqiqodlarda hamda unga oid mavzulardagi muammolarning yechilishida muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Ish tuzilishi va tarkibi. Ilmiy tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. 1) xalqaro aloqalardagi siyosiy terminlarning semantikasi va strukturaviy yasalishi tartibga solish uslubi ishlab chiqildi 2 siyosiy terminlarning tilshunoslikning yangi sohasi bo'lmish lingvomadaniyatshunoslik bilan bo'liq holati o'rganildi 3) ayrim terminlarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi aniqlandi.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi. Xalqaro aloqalardagi siyosiy sohada qo'llaniladigan terminlarning ingliz, rus va o'zbek tillarida nafat

o'zining belgilangan maydonida balki bundan tashqari lisoniy dunyo tasvirida nomoyon etilishi katta ahamiyatga ega bo'lib, terminlarning madaniyatdagi tutgan o'rni va ahamiyatini belgilab beradi. Dissertatsiya mavzusini terminlarni lingvomadaniy yo'l orqali turkumlash va tartibga solishda davom ettirish mumkun.

Ilmiy rahbar: Ko'ldashev A. M. f.f.n.dots. Magistratura talabasi: Boltayeva D. Sh.

Mundarija

Kirish	4
I. BOB. Terminologiya masalalarining hozirgi zamon ilmiy adabiyotlardagi nazariy talqini	11
1.1 Terminologiya masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili.....	11
1.2 Xalqaro sohalardagi terminlarning shakillanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	26
I bob bo'yicha xulosa	40
II. BOB. Lingvomadaniyatshunoslikning hozirgi zamon tilshunosligidagi o'rni	41
1.3 Lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy adabiyotlardagi talqini.....	41
1.4 Lingvomadaniy yondashuvda konseptual va kognitiv tahlilning o'rni.....	51
II bob bo'yicha xulosa	56
III. Ingliz, Rus va O'zbek tillaridagi Xalqaro munosabatlarni bildiruvchi terminlarning strukturaviy-semantik va kognitiv –konseptual tadqiqi...	58
1.5 Xalqaro munosabatlarni bildiruvchi terminlarning strukturaviy va semantik tahlili.....	58
1.6 Xalqaro munosabatlarni bildiruvchi terminlarning kognitiv va konseptual tahlili.....	71
III bob bo'yicha xulosa	80
Umumiy xulosalar	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
Ilovalar	

Kirish

Bugungi integratsiyalashuv jarayonida O'zbekiston hamda jahon xalqlarining umumiy nuqtalari yoki jahon xalqlariga bag'ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqotlar tilshunoslik va boshqa sohalarni yangi daliliy materiallar bilan boyishga xizmat qiladi. Til yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy tadqiqotlarga Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan alohida e'tibor qaratib, xalqning madaniy va ma'naviy merosini, adabiyoti va folklorining tarixiy va hozirgi rivojlanishini har tomonlama tadqiq qilish muhim vazifalardan biri sifatida ta'kidlaydi¹. Bundan tashqari ta'lim sohasi haqida gapirganda O'zbekistonda o'rganilayotgan barcha tillar bilan bir qatorda ingliz tiliga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda ekanligiga to'xtaladilar². E.Sepirning yozishicha ham: "Til—bu madaniyatni ilmiy o'rganishda yetakchilik, boshlovchilik qilishi bilan muhim ahamiyatga egadir"³.

Hozirgi bosqichda ona tilimiz lug'at tarkibining asosini turli tuman terminologik tizimlarsiz ta'savvur etib bo'lmaydi. O'zbek tilshunozligida, hususan uning terminologiyasida ko'plab doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalar, 10 ga yaqin monografiya, to'plam va risolalar va qator ilmiy ommabop maqolalarning e'lon qilinganligi turli anjuman o'tkazilganligi yuqoridagi fikrlarning yorqin dadili.

Tarjimashunoslik tarixiga nazar tashlar ekanmiz o'tgan asrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan davr oralig'ida olib borilgan ilmiy ishlarda mutaxassislar tajribaning leksik, grammatik, stilistik va boshqa bir qancha dolzarb muammolari to'g'risida fikr yuritishgan. Terminlarni o'rganishdan asosiy maqsad chet tillaridan kirib kelayotganso'zlarni o'z ona tilimizga aynan mos tushadigan so'zlarga almashtirish va tarjima qilishdir.

Xalqaro aloqalardagi siyosiy sohaga oid chet tillaridan kirgan terminlarning o'zbek tiliga tarjima qilish va tarjima jarayonida uchraydigan muammolarni bartaraf etishda o'zlashgan terminlarni o'zbek tiliga aynan mos tushadigan muqobil variantlarini topish muhimdir. Ko'pgina siyosiy terminlar o'zbek tiliga

¹Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — Toshkent: O'zbekiston, 1997. — B.266.

² Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. — Toshkent: O'zbekiston, 1995. — B.8.

³Сепир Э.Избранные труды по языкознанию и культурологии. —М.: Прогресс, 2001. —С.132.

rus tilidan, rus tiliga esa lotin, yunon, ingliz, fransuz va boshqa bir qancha tillardan kirib kelgan. Bu kabi terminlarni o'rganish nafaqat tilshunoslikning balki tilshunoslikning ham oldiga qo'yilgan muhim masalalaridan biridir.

Tilshunosligimizning barcha sohalarida nazariy masalalarni toboro chuqurroq, teranroq tadqiq etish sari dadil qadamlar tashlanmoqda, amaliy jihatdan qator ishlar yuzaga kelmoqda. Turli tipdagi, ya'ni bir tilli, ikki yoki undan ortiq tilli, umumfilologik yohud terminologik lug'atlarning nashr etilganligi ham tilshunoslarimiz erishgan yutuqlarini yorqin namoish eta oladi.

Boshqa til va uning xalaro aloqalardagi terminlari, til madaniyatidagi o'rni bilan tanishish uchun lingvistika sohasi yuqori o'rinda turadi. Tilshunozlik orqali biz ingliz, rus va ozbek tilidagi terminlarning strukturasi, semantikasi, kognitiv va konseptual tahliliga ega bo'lamiz. Terminlarni til madaniyati bilan uzviy bo'glashning o'ziga xosligi shundaki, mavjud bo'lgan terminlarning nafaqat o'z ma'nosida xizmat qilishi balki madaniyat ta'sirida ko'chma ma'noda ham qo'llanilishi bundan tashqari ularning etimologik jihatdan chambarchas bo'g'liqligini kuzatish imkonini yoritib beradi. Shuning uchun ham bugungi kunda ko'plab olimlarimiz bu mavzu borasida turli xil tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, hozirgi kunda lingvomadaniyatshunoslik o'zbek tilshunozligiga yangi o'rganilayotgan fan sifatida kirib keldi. Shuni takidlash joizki, xalqaro aloqalarda istemol qilinayotgan atamalarning lingvomadaniyatshunoslik bilan bog'lash bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun "Xalqaro aloqalarni bildiruvchi terminlarning lingvomadaniy xususiyati" nomli magistirlilik dissertatsiyasi tanlandi.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalarida katta o'zgarishlar bo'ldi. Har sohada yoshlar uchun ulkan imkoniyatlar yaratildi. XXI asrda iqtisodiy va harbiy salohiyatining rivojlanishi va tinchliksevarlikka asoslangan tashqi siyosati uning xalqaro aloqalardagi obro'-e'tiborining kuchayib borishida muhim omil bo'lmoqda. Mamlakatlarimiz o'rtasida 2006 yili do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to'g'risidagi davlatlararo Shartnomaning imzolangani ikki tomonlama aloqalar

tarixida muhim voqea bo'ldi. Ushbu Shartnoma hamkorlikni uzoq muddatli asosda rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, barcha davlatlarning uzining siyosiy maydonida qamrab olingan so'zlar va atamalar mavjud bo'lib, ingliz rus va o'zbek tillarida siyoat sohasidagi maxsus leksikani tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqur ilmiy va nazariy tahlil etish ehtiyoji tug'ilmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimi, ayniqsa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjima sohalari jadal suratlar bilan rivojlanib kelmoqda. Tilning lug'at tarkibi har tomonlama tadqiq etilishi tilshunoslikning muhim va dolzarb masalalarini biriga aylantirilganligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Tilshunoslik sohasidan ajralib chiqqan yangi yo'nalishlar diqqat markaziga "til va madaniyat", "til va jamiyat", "til va inson" kabi muammolarni qamrab olindi. Jahon tilshunosligida XX asr so'nggida shakllanib, rivojlanayotgan lingvomadaniyatshunoslik, lingvokognitologiya kabi ilg'or fan yo'nalishlari aynan shu muammolar bilan shug'ullanmoqda. Lingvomadaniyat zamonaviy tilshunoslikning eng yangi va kam tadqiq qilingan bo'limlaridan bir hisoblanadi. Ushbu magisterlik dissertatsiyasi xalqaro aloqalardagi qo'llaniladigan siyosiy terminlarning lingvomadaniy tahlili, ularning tarixi, tuzilishi va ahamiyatiga bag'ishlanadi.

Mavzu bo'yicha qisqa adabiyotlar tahlili. Til va madaniyat, muloqot va til imkoniyatlari munosabatlariga bag'ishlangan ishlar jahon tilshunosligida ommalashgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida bu masalaga e'tibor, uning ilmiy tadqiqi endigina boshlanmoqda. Bu fikrni aytishga milliy tilshunosligimizda mazkur mavzu doirasiga aloqador sanaladigan ayrim ishlar asos bo'lib xizmat qiladi⁴.

Til va madaniyat munosabati masalasi, etnik madaniyatning tilda aks etishi masalasining o'rganilishi xalqaro aloqalarda qo'llaniladigan terminlar bilan bog'liq. Terminlar va ularning o'ziga xos strukturaviy va semantik xususiyatlari bilan shug'ullanuvchi sohalarda amalga oshirilgan ishlar yetarlicha bo'lsa ham, bu

⁴ Mengliyev B., Sayfullayeva R. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo'lida // "Ma'rifat" gazetasi, 2007 yil 21 may; Safarov SH. Pragmalingvistika. –T.:Fan, 2008; Safarov SH. Kognitivtilshunoslik. –T. Fan, 2007; Toirova G., Safarov SH. Nutqni sotsiopragsmatik o'rganish asoslari. –Jizzax:NS, 2006.

soha til va unda etnik madaniyatning aks etishini maxsus o'rganishni maqsad qilib olmagan. Shuning uchun lingvomadaniy yondoshuv mazkur ishimiz mavzusi bilan bevosita bog'liq deb bo'lmaydi. Chunki terminlar bilan bog'liq amalga oshirilgan shu kungacha bo'lgan tadqiqotlar terminlarning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ishimiz mavzusi bilan aloqador masalaning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi deyarli kuzatilmaydi. Tilshunoslikning terminologiya va lingvokulturologiya sohalarida amalga oshirilgan ishlar mazkur ishimiz mavzusiga bog'liq jihatlar bilan aloqador sanalishi mumkin.

Til va nutqni ham lisoniy xususiyatlarni e'tiborga olgan holda tadqiq etish natijasida lingvokulturologiya sohasida ayrim ochilmagan yangi qirralarini shakllantirmoqda.

Tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasi O'zbek tilshunosligida hali to'la shakllangan emas. Shunga qaramay tilshunoz olimlarimiz bu borada turli izlanishlar va tadqiqotlar olib borishmoqda. Bizda esa bu sohada xalqaro aloqalardagi terminlarning til madaniyatiga ta'siri va ularning ko'chma ma'noda qo'llanilish holatlarini o'rganamiz.

Tadqiqot maqsadi. Maskur magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi xalqaro aloqalarda qo'llaniladigan terminlarning tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish, terminlarning ma'no va muhim xususiyatlarini aniqlash, maqsad va vazifalarini, ularning tildagi va madaniyatdagi o'rni va ahamiyatini belgilashdan iborat. Bundan tashqari, ko'zlangan maqsad o'z ichiga hozirgi zamon ingliz rus va o'zbek tillarining siyosiy terminlarini lingvomadaniyatshunoslikda kognitiv va konseptual tahlil etish, yasash va leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish kabi quyi maqsadlarni qamrab olgan.

Tadqiqot vazifalari. Asosiy maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqot ishiga quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

1. Xalqaro aloqalarda qo'llaniladigan terminlarning kelib chiqish tarixini qisqacha o'rganish;

2. Terminologiya masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda berilgan nazariy tasniflarni atroflicha ko'rib chiqish;

3. Xalqaro sohalardagi terminlarning shakillanishi va rivojlanishining o'ziga xos ahamiyatlarini tadqiq qilish;

4. Lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy adabiyotlardagi olimlarning shu soha bo'yisha bildirgan fikrlarini o'rganish;

5. Lingvomadaniy yondashuvda konseptual va kognitiv tahlilning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib o'tish;

6. Xalqaro munosabatlarni bildiruvchi terminlarning strukturaviy va semantik yasallishini o'rganish;

7. Xalqaro munosabatlarni bildiruvchi terminlarning kognitiv va konseptual tahlil qilishda yuzaga kelgan muammolarni bayon etish;

Tadqiqot obyekti – bo'lib xalqaro aloqalarda qo'llaniladigan siyosiy sohada turli mazmun ko'lamiga ega bo'lgan terminlar xizmat qiladi.

Tadqiqot predmeti- bo'lib xalqaro aloqalardagi siyosiy sohada ishlatiladigan terminlarning strukturaviy semantik, kognitiv-konseptual va lingvomadaniy xususiyatlari xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. O'rganilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra siyosiy matnlar va ularning tarjimasi, siyosiy terminlar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ularning ko'pchiligi rus va ingliz tillari misolida tahlil qilingan. Bizning tadqiqot ishimizda rus va ingliz tillaridan o'zbek tiliga o'zlashtirilgan terminlarning lingvokulturologik xususiyatlari va muammoli jihatlari tahlil ostiga olinadi. Bu esa ingliz va o'zbek til madaniyatida yangilik hisoblanadi. Mazkur maqsad o'z ichiga hozirgi zamon ingliz rus va o'zbek tili siyosiy terminlarini til madaniyati bilan uzviy bog'lagan holda kognitiv va konseptual tahlil etish, siyosiy terminlarning yasallish va leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish, kabi quyi maqsadlarni qamrab olgan. Shuningdek, muallif o'z oldiga ilmiy tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar ishlab chiqish, ushbu mavzuning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash vazifasini ham qo'ygan.

Chunki bu yo‘nalishda bir qator ishlar bajarilgan bo‘lsada, juda ham kam amaliy ishlar olib borilgan va ular nazariy jihatdan to‘la tadqiq etilmagan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi – To‘plangan materiallar hozirgi zamon tilshunoslik fanida keng qo‘llanilayotgan qiyosiy-tarixiy, matematik-logik, struktural, paradigmatic va sintagmatik, diaxronik va sinxronik, tavsifiy, tahliliy, kognitiv, komponent hamda statistik va interpretatsiya metodlari yordamida tahlil etildi. Ishda sistematika va umumiy konseptual yondoshuvlar ham katta o‘rin egalladi. Ba‘zi holatlarda mavzuning interaktiv xususiyatlaridan kelib chiqib, siyosatshunoslikka oid umumiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotni amalga oshirishda asosan qiyosiy uslubdan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ingliz tilidagi siyosiy terminlarnig kelib chiqishi, ingliz va rus tilidan o‘zlashgan terminlar va ularning o‘zbek tiliga tarjimasi tahlil qilindi. Siyosiy sohadagi terminlarni lingvokuturologik xususiyatlari belgilandi, kognitiv va konseptual tahlil qilindi. Shu bilan birga manbalarga ilmiylik nuqtai nazaridan izohlar berib o‘tildi va ikki tildagi ekvivalentlari keltirildi.

Tadqiqod material. Izlanish materiallari sifatida siyosiy sohaga oid terminlar aks ettirilgan bir va ikki tillik lug‘atlar, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar va boshqalardan foydalanildi. Bundan tashqari siyosiy terminshunoslikgi va lingvodaniyatshunosli sohasida bilan shug‘illangan bir qator olimar ishlari, jumladan B.N.Golovin, A.V.Kalinin, V.P.Danilenko, A. Wierzbickaya, R.M. Keesing, R. Langacker, V. Maslova, V. Karasic, S. Vorcachev, V. Telia ishlari haqida internet resurslari ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati. Xalqaro aloqalardagi terminlarning lingvomadaniy tadqiqi yo‘llari, ya‘ni shunday tadqiq qilishning me‘yorlari ushbu tadqiqotda ko‘rib chiqilgan va xalqaro terminlarning o‘ziga xos lingvistik hamda ekstralingvistik xususiyatlari bu sohada olib boriladigan ilmiy tadqiqod ishlarining nazariy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bu tadqiqodning tahlillaridan chiqadigan ilmiy xulosalar o‘zbek lingvomadaniyati nazariy asoslari va tahliliy usullarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Tadqiqot xulosalari lingvomadaniyatshunoslik va terminologiya sohalarini kompleks tarzda o'rganishga muayyan hissa qo'shadi. Tadqiqot ishi xalqaro aloqalardagi doir terminologik lug'atlarni va uslubiy qo'llanmalar yaratishda, shu yo'nalishdagi kelgusi tadqiqodlarda hamda unga oid mavzulardagi muammolarning yechilishida muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Maqolalar: "Terminologiyaning ayrim masalalari", "Xalqaro aloqalarni bildiruvchi terminlar qo'llanilishining Lingvomadaniy tahlili".

Dissertatsiya tarkibi. Ilmiy tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa va oydalangan adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat. Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, mavzu bo'yicha qisqa adabiyotlar tahlili, tadqiqotning maqsad va vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti, tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari, tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot materiali, tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, ko'rib chiqiladi. Birinchi bobda terminologiya masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili, xalqaro sohalardagi terminlarning shakillanishi va rivojlanishinig o'ziga xos xususiyati va birinchi bob bo'yicha xulosa berilgan. Ikkinchi bobda linguomadaniyat shunoslikning ilmiy adabiyotladagi talqini, lingvomadaniy yondashuvda konseptual va kognitiv tahlilning o'rni va ikkinchi bob bo'yicha xulosa. Uchinchi bobda xalqaro munosabatlarni bildiruvchi terminlarning strukturaviyva semantik tahlili, xalqaro munosabatlarni bildiruvchi terminlarning kognitiv va konseptual tahlili o'rganiladi. So'ng tadqiqot ishi bo'yicha xulosalar qilinib, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova keltiriladi.

I. BOB. TERMINALOGIYA MASALALARINING HOZIRGI ZAMON ILMIY ADABIYOTLARDAGI NAZARIY TALQINI

1.1 Terminologiya masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili

Hozirgi paytda dunyo tilshunosligining diqqat markazida turli xil mavzular bilan birga terminologiya ham turibdi. Aynan shu davrda zamonaviy tilshunoslik fanida yanada keng ma'no kasb etgan va chuqurroq o'rganilayotgan "terminologiya"ni topish mushkul vazifalardan biri hisoblanadi.

Terminologiya – maxsus leksikani o'rganuvchi fan bo'lib, terminlarning kelib chiqishi, shakli, ma'nosi, vazifasi va qo'llanilishi kabilarni o'z ichiga qamrab oladi. Terminologiya zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning aktual yo'nalishlaridan biridir. Hozirgi vaqtda terminologiya masalasining o'sib borishi, bir tomondan, ilm-fanning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko'payib borishi sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq hodisa deb izohlanadi.⁵

Terminalogiya har bir til so'z boyligining juda kata qismini tashkil etadi. Uning juda tez rivojlanishi ham bejiz emas, chunki u yangi so'zlar yasash imkonini beradi. Biror tilning terminologiyasi ko'p terminlar tizimidan tashkil topgan. Bilim, sanoat yoki madaniyatning biror maxsus sohasidagi biror so'z yoki so'z birikmasi termin deb ataladi. Termin ifoda etayotgan biror so'zning mazmuni mavzuli biror adabiyotda izohlash orqali talqin qilinadi. So'z ifodasi lingvistik termin deb hisoblanishi mumkun deb yozgan edi Z. Xarris va I.F. Frizyslar. Ular deskriptiv lingvistika tarafdorlaridan bo'lib, so'z ifodasini quyidagicha ta'riflaydilar: "So'z ifodasi insonning har qanday nutqi bo'lib, u sukutdan oldin yoki keyin ifoda etilishi mumkin". Fanning har bir bo'limi yoki maktabi o'z tabiati va metodlariga moslab maxsus terminologiyani rivojlantiradi. Bunday maxsus terminologiya ilmiy izlanishning muhim qismi bo'lib, o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki u rivojlanishga katta hissa qo'shadi.

⁵КимВ.Н., КимТ.С. Социально-политическая терминология.–Т., . 2009. С. 5.

Termin soʻzi aslida lotincha “terminus” soʻzidan olingan boʻlib “chek”, “chegara” degan tushunchalarni bildiradi. Terminshunoslik, olimlar ham unga taʼrif berayotga vaqtda, atrof muhitni yaʼni tabiatni xarakterlashda uning anashu lugʻaviy maʼnosini inobatga oladilar. Biroq anashu chek chegarani belgilab olishda, undan anglashiladigan tushunchani xarakterlashda xilma-hillik sodir boʻlmoqda.

U fan-texnika, qishloq xoʻjaligi, sanʼat va madaniyat sohasiga xos soʻz hisoblanadi. Terminologiya - terminlar haqidagi taʼlimot va terminlar majmui deganmaʼnolarni anglatadi. Termin soʻzi oʻrnida baʼzan atama, istiloh soʻzlarini ishlatish hollari uchraib turadi. Ammo bu toʻgʻri emas. Atama termin soʻziga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. “Atama”, “atamashunoslik” kabi tushunchalar umumxarakterda boʻlganligi eʼtiborga olinmadi. Chunki, “atama” deyilganda terminologiyaga aloqasi boʻlmagan onomastika (toponimiya, antroponomiya, oykonimiya kabilar)ga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi. Istiloh soʻzi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va meyorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri boʻlib kelgan. Chunki terminlarning sohalari lugʻaviy qatlamlaridagi oʻrni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini toʻgʻri anglash imkonini beradi.

Termin va terminologiyaning u yoki bu kabi muammoli masalalari yechimini topish fan va texnikaning tegishli sohalari uchunгина emas, balki tilshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan oʻzaro munosabatda boʻlgan terminlar tuzimini oʻzida ifoda etadi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib bormoqda.

Terminlar paydo boʻlib qolmaydi, aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda oʻylab topiladi, ijod qilinadi. Shuningdek oddiy soʻzdan farqli ravishda, terminning maʼnosi kontekstga bogʻliq boʻlmaydi, maxsus soʻz-termin oʻz terminlik maʼnosida va oʻz terminologik maydonida qoʻllanar ekan uning hardoiimgi maʼnosi saqlanib qolinaveradi.

Yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko‘proq kirib kelgan bo‘lsa, shu soha terminologiyasi to‘xtovsiz ravishda kengayib bormoqda. Ana shunday sohalardan biri bugungi kitobchilik ishi bilan shug‘ullanuvchi poligrafiya-nashriyotchilik sohasidir. Mazkur soha taraqqiyotiga e‘tibor bersak, bu sohaga texnik vositalarning kirib kelishi, asosan, yigirmanchi asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Lekin uning eng taraqqiy etgan davri bugungi kundagi holatidir. Hozirgi zamonaviy poligrafiya-nashriyotchilik tarmog‘i hujjatlarni tayyorlash va ularning nusxalarini ko‘paytirish, kitob holiga keltirish jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirgan texnik vositalar qo‘llanadigan etakchi sohalardan biriga aylandi. Natijada, ushbu soha terminologiyasiga juda ko‘plab yangi tushunchalar va ular bilan birga yangi ilmiy-texnikaviy terminlar ham kirib kelmoqda.

Lekin B.N.Golovin “terminologiya” va “terminologik tizim” ifodalarini professional faoliyat sohalaridagi aloqador bir biri bilan tushunchaviy leksik-semantik, so‘z yasalishi va grammatik darajalarda bog‘langan terminlar majmui” ni bildiruvchi sinonimlar sifatida ishlatishni taklif qiladi. Boshqa mualliflar esa, aksinch “terminologiy” va “terminalogik tizim” tushunchalarini farqlash lozimligini uqtirishadi, ya’ni “terminalogiya” tushunchasi ostida stixiyali tarzda to‘planib boruvchi terminlar majmuini , “terminologik tizim” deganda esa inson bilimlari yoki faoliyatining ma’lum bir ixtisoslashgan sohasini tasvirlovchi tushunchalar tizimini adekvat ifodalovchi tartibga solingan terminlar majmuini tushunishni taklif etishadi.

Terminologiyaga bag‘ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo‘lgan va, asosan, nominativ funktsiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. A.Reformatskiy terminga ta’rif berar ekan, “... terminlar – bu maxsus so‘zlardir” degan xulosaga keladi. A.V.Kalinin muayyan fanlar va kasbkorlikda ishlatiladigan so‘zlarni “maxsus leksika” deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi.

1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi.
2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi.

U o‘z fikrini davom ettirib, “Termin bilan professionalizmlar o‘rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo‘jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo‘lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko‘pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat‘iy, ilmiy tavsifiga ega bo‘lmagan yarim rasmiy so‘zdir”, -deydi.

Ma‘lumki, har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan ham uzviy bog‘liqdir.⁶ Chunki ilmiyadabiyotda qo‘llanadigan termin yoki uning ifoda shakli aniq va ravshan bo‘lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlikkabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi. Shu bois, V.P.Danilenko ta’kidlaganidek, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko‘rsatkichi shu soha terminologiyasining «qat‘iy ilmiy terminologiya»ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. V.P.Danilenko bu erda «qat‘iy ilmiy terminologiya» tushunchasini biron bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg‘unlashuvi, sohaviy terminologiyaningayni sohaga oid tushunchalarni ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muomalada bo‘lib turgan terminologiyaning muayyan fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi.⁷

Terminlarning «aniqligi va qat‘iylashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko‘rsatadi. Atamalarining rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo‘lib, ma‘lum fanning taraqqiyotiga bog‘liq. Bu taraqqiyot to‘xtovsiz bo‘lgani uchun yangi atamalarining kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzluksiz bo‘ladi. Umuman, onatilida atamalarining puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo‘llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo‘lgan manbadir. Atamalarining ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta’sir ko‘rsatadi».⁸

⁶ Nurmonov A. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. –T.: Sharq, 2002. –B. 62-63.

⁷ Danilenko V.P. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. -М.: Наука, 1977. -S.157.

⁸ Abdurahmonov G‘., Mamajonov S. O‘zbek tili va adabiyoti. -T.: O‘zbekiston, 2002. -B. 84-85.

Terminologiya voqelikni tushunishning ma'lum bir belgilangan sistemasini ifodalab, intellektual aloqa kanalining biri hisoblanadi. Vinogradovning fikriga ko'ra "Terminlarni yaratish va belgilashning ikki tomoni, ikki nuqtai nazari mavjud: til strukturasi va tushunish, semantic shartli ravishda ilimdagi u yoki bu tushunish sistemasining rivojlanishi"⁹ deya izoh beradilar.

Tilshunoslikda terminlarning o'zgarishi hamda yangiterminlarning paydo bo'lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Bu haqda tilshunos olim L.I.Bojno quyidagilarni ta'kidlaydi: «Texnikataraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi»¹⁰. Texnik malakaning endilikda ma'lum tor doiradan chiqib, ommaviy xarakterga ega bo'layotganligi va turli sohalarning mutaxassisleri kundalik faoliyatida fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanayotganligi terminlarga bo'lgan yuksak talab bilan uning hozirgi holati orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishni talab etadi. Chunki hayotda fan va texnika taraqqiyoti qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, uni egallash, boshqarish va taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir.

D.S. Lotte qanday kategoriyadagi so'zlar terminlashishi mumkinligi haqida gapirib: "texnikada quyidagi tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriyalar terminlashadi: jarayonlar (hodisalar); texnika predmetlari (materiallar, qurollar, asboblari, detallar va h.k.); xossalar; hisobiy tushunchalar (parametrlar, geometrik obrazlar va h.k.); o'lchov birliklari"¹¹, A.V. Kalinin esa termin bilan kasb-hunar so'zlariningbir-biridan farqli ekanligini quyidagicha asoslashga intiladi: "termin – bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir,

⁹ В.В. Виноградов, «Вопросы языкознания»1961, стр.3-10

¹⁰ВоджноЛ.И. Научнотехническая терминология из объектов изучение закономерностей розвитие языка // Филологическая наука. 1971. – с. 103.

¹¹ Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. М., 1961. – с. 29.

nomidir, kasb-hunar soʻzlari esa – biror kasb, mutaxassislik oʻrtasida koʻpincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qatʼiy, ilmiy tavsifiga ega boʻlmagan yarim rasmiy soʻzdir”¹².

T.S. Kogotkova bu fikrga yana ham oydinlik kiritib “Mahalliy ishlab chiqarishning biror sohasi dialektal soʻzlari jamini ishlab chiqarish – kasbkorlikka oid leksika deb ataymiz”¹³ deb taʼkidlaydi.

Rus tilshunosligi va tarjimashunosligida esa bu masala chuqur tadqiq ostiga olingan va samarali natijalarga erishilgan. Jumladan, T.S. Shulyukina¹⁴ oʻz tadqiqot ishida iqtisodiy terminlarning oʻziga xos xususiyatlari, iqtisodiy terminlar tarjimasining muqobilligi, terminlarning ekvivalentini topish muammolari, kognitiv model kabilarni oʻrganib chiqqan va tahlilga tortgan.

J.V.Lesnikova¹⁵ “Способы перевода терминов с английского языка на русский (на материале экономических текстов)” nomli ishida umuman terminologiya, terminlarning xususiyati va tilshunoslikdagi oʻrni, terminlarni tarjima qilish masalalari, vositali va vositasiz tarjima kabilartahlilostiga olingan. Tahlil rus va ingliz tilidagi iqtisodiy terminlar tarjimasiga bagʻishlangan.

E. V.Kinchina¹⁶ “Когнитивные аспекты перевода экономических терминов: На материале английского и русского языков”. Bunda kognitiv tilshunoslik terminologik muammolarning aspekti sifatida oʻrganilgan. Iqtisodiy terminlar tarjimasining oʻziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot ishi ingliz va rus tilidagi manba asosida boʻlganligi sababli unda ingliz tilidan rus tiliga oʻzlashgan terminlar ishning asosiy negizi sifatida koʻrilgan.

A.S. Kaplina¹⁷ “Межкультурные особенности экономического текста и трудности его перевода”. Bu tadqiqotda iqtisodiy matnning xususiyatlari, matnlarning ekvivalentligi va adekvatligi ustida izlanishlar olib borilgan.

¹² Калинин А.В. Лексика русского языка, 1971. – с. 141.

¹³ Коготкова Т.С. К вопросу о производственно-профессиональной лексикоговора и соотношении ее с терминологической лексикой литературного языка // Дialeктная лексика 1969. – Ленинград: Наука, 1971. – с. 4.

¹⁴ Шулюкина Т. С. К вопросу перевода экономических терминов (на материале английского и русского языков).- М., 2011.

¹⁵ Лесникова Ж.В. Способы перевода терминов с английского языка.-М., 2010

¹⁶ Кинчина Е. В. Когнитивные аспекты перевода экономических терминов.-К., 1999.

¹⁷ Каплина А.С. Межкультурные особенности экономического текста и трудности его перевода.-М., 2012.

Tadqiqotchining fikricha, iqtisodiy matnlarning asosiy maqsadi kogniti va axborot yetkazish bo'lib, buning uchun turli iqtisodiy terminlardan, qisqartmalardan foydalaniladi. Ba'zi elementlarni tarjima qilishda adekvatlikka erishish uchun transformatsiyalardan foydalanish kerakligini qayd etadi.

I.V. Streletskaya¹⁸ “Языковые особенности перевода экономических текстов с английского языка на русский” nomli tadqiqot ishida iqtisodiy diskursga alohida bob ajratilib, chuqur tahlil ostiga olingan. Unda diskurs tushunchasi, iqtisodiy diskurs va iqtisodiy diskursning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Qolgan boblarda iqtisodiy matnlar leksik birlik, grammatik birlikhamda stilistik – uslubiy birliklarga bo'linib tadqiq qilingan. Leksik birliklarnitahlil qilishda terminlar va maxsus leksika tarjimasi, umumiste'moldagi leksikatarjimasi, abbreviaturalar, akronimlar va korxona-tashkilot nomlari kabilarko'rib chiqilgan. Uslubiy birliklarda esa frazeologizmlar va klishelar, metaforalar tarjimasi tadqiq qilingan.

O.V.Dovbishning¹⁹ “Английская финансовая терминология и проблемы ее перевода на русский язык (На материал его довых финансовых отчетов зарубежных компаний)” da moliyaviy hisobot terminlar tizimi o'ziga xos matn janri sifatida o'rganilgan. Tadqiqotga korxonaning yillik moliyaviy hisoboti manba bo'lib xizmat qilgan.

Termin borasida turlicha nuqtai-nazar yo'q emas, jumladan I.V. Arnold, M.V. Nikitin, A.A. Ufimseva va boshqalar talqinida termin so'zning o'ziga xos turidir. “Ideal terminmonosemantik” bo'lmogi darkor va o'z soxasida ishlatilganda mikro-kontekstga “qaram” emas. Uning ma'nosi o'zgarishsiz qolaveradi, agarko yangi kashfiyot paydo bo'lib, uning tushunchasi yoki raferentini o'zgartirmasa.

Kontekstan anchagina mustaqil bo'lgan termin kontekstual ma'noga ega emas. Uning faqatgina yagona am'nosi denotative ma'nosidir. Termin mazmun va morfologik tartib o'rtasidagi yakka moslashuvga ega. Termin o'z sohasi doirasida qo'llanilganda, emotsional bunyodkorlikka ega bo'lmaydi. Bunday

¹⁸ Стрелецкая И.В. Языковые особенности перевода экономических текстов с английского языка на русский. - М., 2012.

¹⁹ Довбыш О.В. Английская финансовая терминология и проблемы ее перевода на русский язык.-М., 2003.

bunyodkorlikga ya'ni konnotatsion yoki stilistik bunyodkorlikka ega bo'lishi uchun o'z sohasi doirasidan tashqaridan boshqa terminologik tizim a'zolari bilan qo'shib ishlatilishi kerak va ko'pincha adabiy va so'zlashuv nutqida ishlatiladi. Biroq bu mahalda terminlik vazifasini yo'qotadi va uning denotatsion ma'nosi ham o'zgaradi. U oddiy bir so'zga aylanib qoladi. Fanning har bir bo'limi yoki maktabi o'z tabiati va metodlariga moslab maxsus terminologiyani rivojlantiradi. Bunday maxsus terminologiya ilmiy izlanishning muhim qismi bo'lib, o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki u rivojlanishga katta hissa qo'shadi.

Ilmiy terminologiyaning (jumladan ingliz tili va o'zbek tillari) masalalarini ishlab chiqishda rus tilini ilmiy terminologiyasiga bag'ishlangan maxsus tatqiqotlar muhim ro'l o'ynamoqda.

Bu borada talantli terminshunoz, terminologik tatqiqotlar tashabbuskori D.S. Lottening ishlari alohida diqqatga sazovordir. Bu o'rinda shuni qayt etish kerakki, D.S. Lottening ishlari ingliz tili va o'zbek tilshunozligi va terminologiyasi uchun ham xuddi ana shunday ahamiyatga egadir. Chunki uning asarlarida ilmiy terminlarni tartibga solish va termin yasash kabi eng dolzarb masalalar o'z ifodasini topgandir.

D.S. Lotte terminologik tizimini yuzaga keltirishda qator usullar mavjud ekanligini ko'rsatib beradi. Bu esa ingliz terminshunozligi uchun ham birdek muhim hisoblanadi. U ilmiy terminlar yasashning quyidagi usullarini ko'rsatib o'tgan:

1. Umumiy funksional o'xshashlik, tashqi o'xshashlik yoki o'zaro bog'liqlik asosida ko'chirish yo'li bilan mavjud terminlarning yoki umuman taomildagi so'zlarning ma'nosini o'zgartirish

2. Turli affiks (suffiks, infleks) larni ishlatib mavjud so'zlardan yangi so'z yasash

3. Mavjud bo'lgan mustaqil so'z va o'zaklarni (bular ba'zan qisqargan bo'lishi mumkin) bir-biriga qo'shish yo'li bilan yangi qo'shma (ko'p o'zakli) soz hosil qilish

4. Birikma terminlarini hosil qilish, ya'ni ikki yoki bir necha mustaqil so'zlarni mavjud bo'lgan biror sintaktik forma vositasida doimiy qo'llash

D.S. Lotte tomonidan ko'rsatib o'tilgan termin yasash usullari ingliz va o'zbek terminshunozligida ham o'zining amaliy tadbirini topmoqda. Qayd etish kerakki, uning "ilmiy terminologiyani barpo etishning asoslari", "ilmiy terminlarning qisqa formalari", "uch elementdan iborat ilmiy terminlarni yasash va ularni imlosi" nomlari bilan e'lon qilingan asarlari to'plamlari nafaqat rus tilining, balki boshqa tillar terminologiyasining nazariy masalalarini ishlab chiqish va shu asosiy milliy terminologiyani vujudga keltirishda ham qimmatli manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Malumki, ilmiy terminologiyada bag'ishlangan ishlarning deyarli barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan definitsiyaga ega bo'lgan va asosan, nomimativ funktsiyani bajaradigan birikmalar termin hisoblanadi deb qaraladi. Keyingi paytlarda qaysi so'z turkumlarini termin deb hisoblash borasida munozara yuzaga kelgan.

Lotte o'z ishlaridan birida qanday kategoriya so'zlaning terminlashishi mumkunligi haqida shunday deb yozadi;

"Fanlarda quyidagi tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriya terminlashadi, hodisa jarayonlari, predmetlar, hossalari, hisobiy tushunchalardir" Taniqli terminshunoz G.O. Vinokur o'zining asrlaridan birida shunday deydi:

"Muayyan ilmiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar terminologik vazifani bajarishiga qarab, albatta, abstrakt nom shaklini, terminlar harakat nomlarining majmuidan emas, balki narsa va harakat tushunchalari nomlarining muayyan tizimidan iboratdir". Shuning uchun predmetlar, sifatlar harakatlari haqida ilmiy tushunchalarni ifodalovchi yagona lesik-semantik vositalar bo'lib so'zning tom ma'nosida otlar maydoniga chiqadi.

Biz ham shu fikrga tomoman qo'shilishimiz va faqat ot turkumiga oid so'zlarga terminologiya obyekti bo'la oladi deb hisoblaymiz. Boshqa so'z turkumlariga kelsak, agar ular termin tarkibiga strukturaviy komponent bo'lmasa ular muayyan tushunchaning harakat qilish jarayonida nomoyon bo'ladi.

Ba'zan shunday fikr yuritiladiki, zamonaviy tilshunozlik doirasida terminologiya murakkab sohadir. Bunga o'xshash fikrlar asosiz ekanligiga ishonch xosil qilish murakkab masala emas. Terminologiya izlanishlari har qanday ilmiy aniqlikka tayangan holda tasdiqlangan fikrlarga va maxsus lug'atlarga ta'sir ko'rsatmaydi. Tilshunozlikda qo'llaniladigan barcha terminlar esa faqatgina tilning ilmiy tatqiqodlarida foydalanish o'rinlidir. Chunki bu kabi terminlar shu sohada ish olib borayotgan tilshunozlar uchun qiziq va tushunarli. Til haqida fikr yuritilganda tilshunozlikda qo'llaniladigan so'zlaning ko'p qismi ishlatilmay qolgan holatlar kuzatilmaydi umuman olganda an'anaviy gramatikadagi maxsus terminlar zamonaviy tilshunozlikdagi terminlarga qaraganda mavhumroq. Tilshunozlar ma'lum bo'lgan nomutaxassislikdagi terminlarni o'zgartiradi yoki to'ldiradi.

Birinchidan, ko'pgina an'anaviy terminlar ilmiy tushunchalarni ifodalashda yetarli darajada aniq emas. Ikkinchidan zamonaviy tilshunozlikning o'zining yo'nalishida tilning umumiy teoriyasi va strukturasi zamonaviy va an'anaviy gramatika orqali sezilarli o'zgardi.

Hozirgi terminologik lug'atlarda maxsus va an'anaviy atamalar keng ko'lamda batafsil tushuntirish, aniq izohlar berish masalalari asta sekin joriy etilmoqda.

Terminologiyada shuni ko'rishimiz mumkinki, tilda nomoyon bo'lgan maxsus terminlarni noto'g'ri tushunish va birma'nolilik masalalariga yo'l qo'yilmoqda. Terminologiyaning tartibga solinishi nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyati katta bo'lgan masaladir.

Biror fan sohasining terminologiyasi o'z terminlarining butun bir majmuasi emas, balki u aniq bir tizim bo'lib tushunchalarni ifoda etuvchi tizimdir. Terminologik tizimlarning bir-birini kesib o'tuvchi o'qlar kabi bir vaqtning o'zida bir necha terminologik tizimlarga kirishi mumkun. Agar terminlarning manosi va ularning talqini o'zgarmas bo'lib keladigan bo'lsa yoki bir bilim sohasi ularga ega bo'lmasa unda bu zarar emas. Qaramaqarshi fenomenon ya'ni terminlar sinonimiyasi ba'zi-bir sabablarga ko'ra xavfli emas.

Ma'lumki, terminologiya masalalari ilmiy-texnik ishlab chiqarish, kasb-hunar, har xil tarmoqlar leksikasi, ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga tegishli soʻz va iboralarni qamrab oladi, bu tushunchalar tarixi xalq hayoti, uning moddiy va ma'naviy jihatlari bilan bogʻliq hamda ularning barchasini tadqiq qilish, tilning mulkiga aylantirish hozirgi davr tilshunosligi oldida turgan, kechiktirib boʻlmas tadqiqot yoʻnalishlaridan biridir.

T.S. Kogotkova bu fikrga yana ham oydinlik kiritib "Mahalliy ishlab chiqarishning biror sohasi dialektal soʻzlari jamini ishlab chiqarish – kasbkorlikka oid leksika deb ataymiz"²⁰ deb ta'kidlaydi.

O'zbek tilda terminologik tizimlarni o'rganishda hozirgi kunda katta ahamiyat berila boshladi. Ona tilimizga davlat tili maqomi berilishinva uning jahon miqyosiga chiqa boshlashi munosabati bilan tilimizning xalqaro obro'si ortib bormoqda.

Umuman olganda, terminalogik tizmlar boshqa til tizmlaridan farqli ravishda ilmiy tushunchalarni tasniflash, sistemalashashtirish va belgilash jarayonida yuzaga keladi. Terminalogiyaning tizimli ekanligini til doirasidan chiqmay turib asoslab bo'lmaydi. Terminologiyadagi tizmlilik, birinchi navbatda, ilmiy bilimning o'zi tizimli ekanligi va iyerarxik tarzda tuzilganligi bilan aloqador. Keltirib o'tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkunki, "terminalogiya" va "terminalogik tizim" tushunchalarini farqlash lozim.

Haqiqatan ham, terminlarga munosabatda soha mutaxassislari va terminshunos olimlar hamkorlikda ish olib borib, o'zgartilayotgan yoki alamashtirilayotgan terminlarning sodda, ixcham, eng muhimi, xalqqa tushunarli bo'lishini ta'minlash ishiga bosh qo'shishlari ayni muddao bo'lur edi. Har bir xalqning asriy tajribasini o'zida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, ularni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga etkazish hozirgi fan oldida, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, "Xalqning

²⁰Коготкова Т.С. К вопросу о производственно-профессиональной лексике говора и соотношении ее с терминологической лексикой литературного языка // Дialeктная лексика 1971. – с. 4.

milliy madaniyati o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tili"²¹da mavjud bo'lgan so'z va iboralarni, atamalar va leksik boyliklarni o'rganish hamda lisoniy meros sifatida ilmiy tahlilini olib borish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. A.A.Potebnya termin so'zini "keyingi ma'no" deb atagan va "u tilshunoslikning o'rganish ob'ektiga kirmaydi, uni boshqa fanlar o'rganadi"²² deb ko'rsatilgan terminologik leksika uzoq davrlargacha alohida nominativ birlik, atama sifatida tilshunoslikda tadqiq qilinmadi. Terminlarga munosabatda, terminologik tizimini yangilash, o'zgartirishva takomillashtirishda tilning rivojlanish qonuniyatlariga, uning lug'aviy tizimini me'yorlashning o'ziga xos ob'ektiv talablariga, mezon, ilmiy o'lchov hamda tamoyillariga amal qilgan holda ish tutish g'oyat muhimdir.

Filologiya fanlari doktori, G'. Abdurahmonov shunday yozadi: «Atamalarning aniqligi va qat'iylashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko'rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bog'liq. Bu taraqqiyot to'xtovsiz bo'lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzluksiz bo'ladi. Umuman, ona tilida atamalarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo'llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo'lgan manbadir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi». Demak, terminologiyani tartibga solinishi nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyati katta bo'lgan masaladir.

H.Bektemirov va E.Begmatovlar o'zlarining "Mustaqillik davri atamallari" kitobida shunday yozadi: "Tilga xohlagan so'zni kiritaverish, undan xohlagan so'zni xohlagan paytda chiqarib yuborish mumkin deb hisoblash xato fikrdir. Til hayotiga, nutqiy amaliyotga aralashishning o'rni, me'yor va buning darajasini bilish hamda o'sha asosda ish ko'rish ilmiy terminlarni tartibga solish va takomillashtirishning eng to'g'ri yo'lidir".

²¹ Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B. 19.

²² Потебня А. А. Из записок по русской грамматике 1958. – с.19

O'zbek tili terminshunoslik sohasining hozirgi darajasi, ilmiy qiymati bevosita rus hamda boshqa xalqlar terminshunoslarining ishlari bilan chambarchas bog'liq. Shu jihatdan qaraganda, N.A.Baskakov, L.A.Bulaxovskiy, G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, A.A.Reformatskiy, D.S.Lotte, S.A.Chapligina, T.L.Kandelaki, V.P.Danilenko kabi o'nlab terminshunos olimlarning ishlari o'zbek terminshunosligining qaror topishiga o'zining katta hissasini qo'shdi.

Turkiy xalqlar tilshunoslarining, jumladan, M.Sh.Gasimov, B.U.Oruzbaeva, R.A.Urekenova, F.S.Faseev kabi olimlarning ishlari ham o'zbek terminologiyaning rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

Ma'lumki, tilshunoslikning eng dolzarb, g'oyatda murakkab, ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohasi terminologiyadir. XX asrning 30-yillari o'zbek tilining ko'plab terminologik lug'atlari tuzilib nashr etildi. Shu jarayonda terminlar tarixi, terminlarning ma'no va mavzu guruhlari, grammatik tuzilishi va yasalishi, taraqqiyot yo'li va boyish manbalari haqida nazariy masalalari ham ishlab chiqildi. Ulug' Tursunov, birinchilardan bo'lib, o'zbek tiliterminologiyasi masalalariga oydinlik kiritishga harakat qildi va ushbu masalaga bag'ishlab asarlar yozdi: «Til-terminologiyada burjuaziya intilishlariga qarshi», «O'zbek terminologiyasi masalalari», «Terminologiya masalalari», «O'zbek adabiy tilidao'z-terminlar tanlash prinsiplari» kabilar. Bu asarlarda terminlarni hosil qilish, to'plash, tartibga solish, unifikatsiyalash va nashr etish sohasidagi turli xil qarashlar va tushunchalar haqida mulohaza yuritiladi. Bundan tashqari, terminologiya sohasida ro'y bergan va ro'y berayotgan chalkashliklar yaqqol ko'zga tashlana boshlashi ta'kidlanadi. Masalan, bir tushunchaning turlicha atala va yozila boshlashi; aniq va ixcham terminlar o'rniga uzundan uzoq izohlarning berilishi; termin yaratishda ona tili imkoniyatlaridan kam foydalanish; o'zbek terminologiyasini boyitishdagi manbalardan biri tashqi omilga turlicha yondashish faktlari mavjudligi ko'rsatildi.

Prof. U.Tursunovning terminologiya masalalariga baqishlangan asarlarida ikki muammo alohida o'rin tutadi:

1. Terminlarning qo'llanilishi.

2. Terminologiyaning boyish manbalari.

Terminlar qoʻllanilishi haqida fikr yuritish ekan prof. U.Tursunov ularni uch guruhga ajratib tahlil qiladi: a) bir sohada qoʻllaniladigan terminlar; b) har xil sohada qoʻllaniladigan terminlar; v) termin hamoddiy soʻz sifatida qoʻllaniladigan terminlar.

Oʻzbek terminologiyasi haqidagi prof. U.Tursunovning fikrlari bugungi tilshunosligimiz uchun ham muhim ahamiyat kasb tadi. K.M.Musayev terminologiyani tilning leksikasi sifatida goʻyo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha, terminologiya yagona reja asosida qurilsa-da, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub boʻlgan turli meʼmorlar, loyihachilar, kashfiyotchilar ishtirok etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi oʻrgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi oʻziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi.²³

Shu bilan birga N.A.Baskakov²⁴, N.K.Dmitriyev²⁵, F.S.Faseyevlarning²⁶, keyinchalik turkiy tillar materiallari asosida terminlarni oʻrganish boʻyicha B.U.Oruzbayeva²⁷, R.A.Urekenova²⁸, M.Sh.Gasimovning²⁹ ishlarini koʻrsatish mumkin.

Oʻzbek tili terminologiyasining rivojiga salmoqli hissa qoʻshgan olimlardan biri professor Renat Doniyorov hisoblanadi. Uning “Oʻzbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari” (1977) kitobida oʻzbek tili texnik terminologiyasini tartibga solish, undagi qator chalkashliklarning oldini olish kabi masalalar oʻrin olgan. Mazkur ish texnikterminologiyani tadqiq qilish ishiga katta hissa boʻlib qoʻshildi deyish mumkin. N.Ikromova oʻzining “Oʻzbek taomlari leksikasi” ishida esa oʻzbek taomlari nomlarining lisoniy xususiyatlari haqida soʻz yuritadi. Shu bilan birga, oʻzbek tili leksikasi masalalari “Hozirgi zamon oʻzbek

²³ Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. 1986. -с.163.

²⁴ Баскаков Н.А. Современное состояние терминологии в языках народов СССР.1959. –с. 27 .

²⁵ Дмитриев Н.К. Грамматическая терминология в учебниках родного языка.1955.

²⁶ Орузбаева Б.У. Словообразование в кыргызском языке. – Фрунзе, 1964.

²⁷ Урекенова Р. А. Образование терминов в казахском языкеб. Алмата. 980.

²⁸ Гасымов М.Ш. Основы терминологии азербайджанского языка.: Автореф. дис. – Баку, 1972;

Azerbajchan dili terminolokijasinin asaslari. – Baku: 1973.

tili”³⁰, “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”³¹kabi tadqiqotlar va darsliklarda ham oʻz ifodasini topgan. 1981-yilda OʻzFA Til va adabiyot institutining bir guruh tilshunos olimlari tomonidan “Oʻzbek tili leksikologiyasi” nomli yirik ish maydoniga keldi. Oʻzbek tilshunosligida leksik qatlamlarni qiyosiy oʻrganish masalalari boʻyicha ham ancha ishlar qilinganini kuzatish mumkin. Bu borada I.Ismoilovning 1966 yilda nashr ettirgan monografiyasi muhim ishlardan biri sanaladi.³²Muhimi shundaki, mazkur ishda oʻzbek va uygʻur tillardagi qon-qorindoshlik terminlarilarining paydo boʻlishi va amalda qoʻllanish meʼyorlari atroflicha tahlil etilgan. D.X.Bazarova va K.Sharipovalar tomonidan “Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston turkiy tillari leksikasining taraqqiyoti” deb nomlangan yirik tadqiqot maydonga kelganligini ham taʼkidlash oʻrinli. Unda Markaziy Osiyo hududidagi turkiy tillarda qoʻllanilgan zoologik terminlar tadqiqot obyekti qilib olingan. H.Dadaboyevning “XI-XI U asrlar turkiy tillar yozmayodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial iqtisodiy terminologiya”³³mavzusida yaratilgan tadqiqotida oʻzbek tilidagi, jumladan, turkiy tillardagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiyaning paydo boʻlishi va tilda qoʻllanish mummolari atroflicha oʻrganilgan. Unda ayniqsa, Oʻrta Osiyo hududidagi turkiy xalqlar tillaridagi yurt, ulus, baliq (“shahar” maʼnosida), yasaq (“huquq, qonun” maʼnosida), ordu, qazi, ogʻriliq, jaza, yugʻrush (“vazir” maʼnosida) kabi yuzlab ijtimoiy-siyosiy terminlar ishlatilganligi, Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadugʻu bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat al-haqoyiq”, Zamaxshariyning “Muhaddimat al adab”, Sayfi Saroiyning “Guliston bi-t-turkiy”, Qutbning “Xisrav va Shirin”, Rabgʻuziyning “Qissasi Rabgʻuziy” kabi asarlaridan olingan terminlar misollar bilan isbotlab berilgan. Shu bilan birga, terminlarning paydo boʻlish tarixiga, ularning yasaliş qonuniyatlariga hamda boshqa tillardan oʻzlashtirilgan terminlar hisobiga boyishi masalalariga ham alohida eʼtibor berilgan.

³⁰ Tursunov U. Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek tili (morfologiya, leksika). – Toshkent, 1971.

³¹ Shoabdurahmanov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyarov X. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, 1980.

³² Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – Toshkent, 1966.

³³ H.Dadaboyev. XI-XI U asrlar turkiy tillar yozma yodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya. – Toshkent, 1991.

Albatta, bunday o'zgarishlar o'zbek tilining ish ko'rish doirasini kengaytirib, uning leksik tarkibini yangi-yangi ilmiy va texnik terminlar bilan boyitdi.

1.2 Xalqaro sohalardagi terminlarning shakillanishi va rivojlanishining o'zigaxos xususiyati

Ma'lumki har qanday terminologik lug'at u yoki bu soha terminlarini tartibga keltirish, ularning terminologiyadagi o'rnini, topdirla olish singari muhim vazifalarni bajaradi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqilsa, ishning umumiy tavsifida qayt etilgan hamda xalqaro aloqalardagi terminlarni qamrab olgan terminologik lug'atlarni o'z o'rnini bor.

Tilshunozlar terminlarning strukturasi va yasalishi, paydo yo'llarini terminlarning maxsus xususiyatlarini va ayrim bilim sohasining terminologiyasi tarkibi, ilmiy terminlarni tartiblash standartizatsiya qilish yo'llari va hokazolarni o'rganishgan. Ikki tilning (ingliz va o'zbek) butun terminologik tizimini qiyosiy o'rganish masalasi, qolaversa, ular o'rtasida giparallelarni va tafovutlarni o'rganish ko'p tomonlama ochilmagan masalalar sirasiga kiradi. Terminologiya tizimining butun strukturaviy qiyinchiligini qiyosiy jihatdan o'rganish o'rniga tilshunozlar ikki tilda mavjud kam sonli terminlarning tafovutlarini o'rganganliklari bilan maqtanishadi. Biroq, bu kabi kam tafovutlarni o'rganish ikki til terminologiya tizimidagi strukturaviy farqlar, murakkab ichki terminologiyani "tashqi signali" sifatida o'rganish kabi yetarli emas.

Shuni alohida takidlab o'tish joizki, har qaysi tilning terminologiyasi sohasida amalga oshirilgan ilmiy tatqiqiy ishlar tushunchalarni ifodalash uchun tanlangan leksemalarning leksik, semantik, grammatik xususiyatlarini ochib berish, binobarin, bunday terminlarning ona tilida qo'llana olish makonini aniqlashga qaratiladi.

Ilmiy adabiyotlarda barcha tillardagi sohaviy terminologiyalar uchun umumiy bo'lgan quyidagi jiddiy kamchiliklarni ko'rsatib o'tilgan: terminlarning ko'p ma'noliligi; terminlar sinonimiyasi; ma'lum bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi terminning anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyatiga uyg'un

bo'lmashligi; terminning ko'p komponentlardan iborat bo'lishi va natijada, uni qo'llashdagi noqulaylik; termin talaffuzining noqulayligi (bunday terminlar ikki sababga ko'ra vujudga keladi: 1) asosiy terminni yaratishda uning derivatlilik imkoniyatlari etarlicha inobatga olinmaydi; 2) xorijiy terminni o'zlashtirishda unga jiddiy e'tibor bilan qarab, tanqidiy yondoshilmaydi); terminologiyani keragidan ortiq miqdorda xorijiy terminlar bilan to'ldirib tashlanishi; termin yaratilishida uanglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan o'zaro batartiblik (sistemalilik)ning etishmasligi kabilardir.³⁴

Terminlarning ifoda plani so'zga (hujayra, to'qima) yoki turg'un birikmaga (o'q ildiz, popuk ildiz) teng bo'ladi. A.A.Potebnya "keyingi ma'no" deb atagan va "u tilshunoslikning o'rganish obyektiga kirmaydi, uni boshqa fanlar o'rganadi"³⁵ deb ko'rsatilgan terminologik leksika uzoq davrlargacha alohida nominativ birlik, atama sifatida tilshunoslikda tadqiq qilinmadi. Tilshunoslik fani rivojlanib, o'z tadqiqot doirasini kengaytirgan sayin terminlarni o'rganish uning eng muhim va tarkibiy qismlaridan biriga aylandi.

Hozirgi paytda atamashunoslik bir qancha tadqiqot yo'nalishlariga bo'linadi:

1. Nazariy terminologiya – maxsus leksika (termin)larning rivojlanish vaqo'llanish qonuniyatlarini o'rganadi.

2. Amaliy terminologiya – terminlarning amaliy prinsiplari, terminlar va terminologiyaning kamchiliklarini yo'qotish bo'yicha tavsiyalar, ularning qo'llanilishi, yaratilishi va tarjimasiga doir vositalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

3. Umumiy terminologiya – maxsus leksika (termin)larning umumiy xossalari, muammolarini o'rganadi.

4. Xususiy terminologiya – ma'lum bir tilning aynan bir sohasiga mansub bo'lgan terminlarni o'rganadi.

5. Tipologik terminologiya – alohida terminologiyalarni qiyoslab o'rganib, umumiy va alohida terminologiyaning xossalarini belgilaydilar.

³⁴ Lotte D.S. Osnovi postroeniya nauchno-texnicheskoy terminologii. – M.: Izd-vo AN, 1961. – S.7-8.2 Nurmonov A. va boshq. Hozirgi O'zbek adabiy tili. –T.: Sharq, 2002. –B. 62-63.

³⁵ Потебня А. А. Из записок по русской грамматике. –М., 1958. С. 19

6. Chog‘ishtirma terminologiya – turli tillardagi umumiy va maxsus terminologiyani chog‘ishtirib o‘rganadi va xossalarini keltirib chiqaradi.

7. Semasiologik terminologiya – maxsus leksemalarning semantika bilan bog‘liq muammolarini, semantik birliklarning o‘zgarishi, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, giponimiya kabilarni tadqiq qiladi.

8. Onomastik terminologiya – nomlashning maxsus leksemalarini, ularning nomlanish jarayoni, nomlashning optimal shaklini tanlashni tadqiq etadi.

9. Tarixiy terminologiya – terminologiya tarixini o‘rganib, terminlarning kelib chiqishi, shakllanish jarayonini tahlil etadi. Shu orqali terminlar tartibga solinadi. Shu yo‘nalishning natijalariga asoslangan holda tilshunoslikda yangi mustaqil fan – antropolingvistika ajralib chiqdi.

10. Funksional terminologiya – zamonaviy terminlarning turli matnlardagi, professional muloqot holatlarida, mutaxassislarni tayyorlashdagi vazifalari, shu bilan birga nutqda va kompyuter tizimida terminlardan foydalanish xossalarini o‘rganadi.

Hozirda terminologiyaning yangi yo‘nalishlari – kognitiv va gneseologik terminologiyalarni keltirib o‘tish mumkin. Ular terminlarning ilmiy bilish va fikrlashdagi o‘rnini ko‘rib chiqadi.

Tilshunoslik fani rivojlanib, o‘z tadqiqot doirasini kengaytirgan sayin terminlarni o‘rganish uning eng muhim va tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Hozirgi davrda terminlarni o‘rganish tilshunoslikning alohida sohasini – terminologiyani shakllantirdi. Ammo shuni ham aytish o‘rinliki, bu jarayonda inglizchadan rus tiliga, rus tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan terminlarni o‘rinsiz, sun‘iy ravishda yangi yasalmalar yoki arab va fors-tojikcha so‘zlar bilan almashtirish hollari ham kuzatiladi. Masalan

republic – республика – **respublika**- jumhuriyat

democracy – демократия – **demakratiya** – xalq hoimiyati

president – президент – **president** – yurtboshi

minister – министр – **ministr** – vazir

somite – сомит – **samit** – qo‘shma majlis

regulation – регламент – **reglament** – yo'riqnoma

pension – пенсия – **pensiya**- nafaqa

convention – конвенция – **konvensiya**– qurultoy

deputy–депутат–**deputat** – *noib (xalq noibi)*

compensation–компенсация–**kompensatsiya** – *tovon*

Yana shuni ham ta'kidlash joizki, sohalar terminologiyasining matnini ham adabiy orfografik, lug'aviy-uslubiy mezon talablariga mos holda bayon qilinishiga alohida diqqat qaratmoq lozim. Chunki ommaga taqdim qilinayotgan matnlar ixcham, sodda va tushunarli bayon qilinishikerak. Bu borada biz ko'proq to'qnash keladigan sohalardan biri ijtimoiy-siyosiy hujjatlar va boshqa terminologik qatlamlardagi turli yo'riqnomalar va tavsiyalar tilidir. To'g'risi, ba'zi bir matnlarda bayon qilingan ifodalarni birinchi o'qishda uqib olish qiyin. Uni qayta-qayta o'qib zo'rg'a kerakli ma'lumotni tushunib olasiz.

Xalqaro sohalardagi terminologikmasalalarini ishlab chiqishda qayd etilgan maxsus tadqiqotlar muhim rol o'ynab kelgan.

Bu borada qobiliyatli terminshunos, terminologik tadqiqotlar tashabbuskori D. S. Lottening ishlari alohida diqqatga sazovordir. Prof. M. B. Sergeyevskiy uning ishlari haqida shunday deydi:

D. S. Lottening tadqiqotlari rus tilshunosligi uchun ham, rus tili terminologiyasini tartibga solish uchun ham juda katta ahamiyat kasb etadi.

Bu o'rinda shuni qayd etish kerakki, D. S. Lottening ishlari ingliz rus va o'zbek tilshunosligi va terminologiyasi uchun xuddi ana shunday ahamiyatga egadir. Chunki uning asarlarida terminlarni tartibga solish va termin yasash kabi eng dolzarb masalalar o'z ifodasini topgan.

D.S. Lotte terminologik tizimni yuzaga keltirishda qator usullar mavjud ekanligini ko'rsatib beradi. Bu esa ingliz terminshunosligi uchun ham, o'zbek terminshunosligi uchun ham birdek muhim hisoblanadi. U terminlar yasashning quyidagi usullarini ko'rsatib o'tgan:

1. o'xshashlik, tashqi o'xshashlik yoki o'zaro bog'liqlik asosida, ko'chirish yo'li bilan mavjud terminlarning yoki umuman taomildagi so'zlarning ma'nosini o'zgartirish, masalan:

codex – kodeks; senate – senat.

2. Turli affiks (suffiks, infleks)larni ishlatib mavjud so'zlardan yangi so'z yasash, masalan:

offside – tashqarida

safetiness – xafvsizlik

3. Mavjud bo'lgan mustaqil so'z va o'zaklarni (bular ba'zan qisqargan bo'lishi mumkin) bir-biriga qo'shishi yo'li bilan yangi qo'shma (ko'p o'zakli) so'z hosil qilish, masalan:

sneak – qo'pol

weak – zaif

4. Birikma terminlarni hosil qilish, ya'ni ikki yoki bir necha mustaqil so'zlarni mavjud bo'lgan biror sintaktik forma vositasida doimiy birikmaga aylantirish. Masalan:

Civil society – fuqorolik jamiyati

D. S. Lotte tomonidan ko'rsatib o'tilgan termin yasash usullari ingliz va o'zbek terminshunosligida ham o'zining amaliy tadbiqini topmoqda. Qayd etish kerakki, uning "Terminologiyani barpo etishning asoslari", "Terminlarning qisqa formalari", "Uch elementdan iborat terminlarni yasash va ularning imlosi" nomlari bilan e'lon qilingan asarlari to'plamlari nafaqat rus tilining, balki boshqa tillar terminologiyasining nazariy masalalarini ishlab chiqish va shu asosida milliy terminologiyani vujudga keltirishda ham qimmatli manbaa bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Ma'lumki, xalqaro sohalardagi qo'llaniladigan terminologiyalarga bag'ishlangan ishlarning deyarli barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan definitsiyaga ega bo'lgan va asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. Keyingi paytlarda qaysi so'z turkumlarini termin deb hisoblash borasida munozara yuzaga kelgan.

Mana shunga o'xshash fikrlar boshqa olimlarning asarlarida ham aytib o'tilgan. Bu fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, faqat ot turkumiga kiradigan so'zlarga terminlashishi mumkin ekan.³⁶

Bu fikrni Danilenko quyidagicha asoslashga urinadi: birinchidan, ilmiy adabiyotlarda xar xil so'z turkumlariga oid leksik birliklar qo'llaniladiki, ular terminologik ma'no kasb etadi. Ikkinchidan, tilshunos N. S. Avilova animalizirovat, aromatizirovat, lokalizirovat, garmonizirovat kabi fe'l terminlar, shuningdek, generalizirovat, dogmatizirovat, vulgarizovat kabi umumiy abstrakt ma'noli fe'llar terminlashadi deb hisoblaydi.³⁷ Uchinchidan, bir qancha maxsus terminologik lug'atlarga obyektivniy, minovsiy, disparatniy kabi sifat–terminlar, bezvozmezdno; adagio (sekin), grave (vazmin) kabi ravish-terminlar kiritilgan. Mana shularga asoslanib, otdan boshqa so'z turkumlari ham terminlar jumlasiga kiradi deb hisoblaydi.

Tilshunos olim N.A. Chechlova o'zining maqolasida shunday deb yozadi: "Har qanday taraqqiy etgan terminologiya oliy darajadagi mavxumlashishni taqozo etadi. Terminologiya real narsani va harakat nomlarining majmuidan emas, balki narsa va harakat tushunchalari nomlarining muayyan tizimidan iboratdir. Shuning uchun predmetlar, sifatlar va harakatlar haqidagi tushunchalarni ifodalovchi yagona leksik-semantik vositalar bo'lib, so'zning tom ma'nosida otlar maydonga chiqadi."³⁸

Biz ham shu fikrga tamoman qo'shilamiz va faqat ot turkumiga oid so'zlarga terminologiya obyekti bo'la oladi deb hisoblaymiz. Boshqa so'z turkumlariga kelsak..., agar ular termin tarkibiga srukturaviy komponent bo'lmasa, ular muayyan tushunchaning harakat qilishi jarayonida (ilmiy bayon qilish jarayonida) kerak bo'ladi.³⁹

Arnoldning fikriga ko'ra, terminlarning kelib chiqishi ko'pgina kanallarga borib taqaladi va ulardan uchtagina terminologiyaga xosdir. Ular quyidagilardir:

³⁶ В.П. Даниленко /1967/40

³⁷ Н. С. Авилова "Слова интернационального происхождения в русском литературном языке нового времени" /1967/160

³⁸ Н.А. Чечлова. /1963/89

³⁹ С. М. Гурдин /1959/107

1. Klipping, ellipsis, blending, abbreviatura orqali terminologik iboralarning paydo bo'lishi:

transistor receiver – transistor — trannie;
ecological architecture – ecotecture.

2. Lotin hamda Grek tillaridan olingan qo'shma shakllarning ishlatilishi: aerodinamika, mikrofilm, telegraf, supersonik.

Bu jarayon ko'pgina tillardagi terminologiyaga xosdir.

3. Aynan biror tilning ichidagi terminologik tizimdan o'zlashtirish uchraydi, chunki o'sha sohada o'xshashliklar mavjud. Masalan, dengiz terminologiyasi aviatsiya lug'aviy boyligida ham uchraydi. Tilshunoslik sohasiga qaytadigan bo'lsak, ritorikadan olingan metafora, metonimiya, sinekdoha, va shu kabilarni uchratishimiz mumkin.

Oxirgi ikki metod lug'atning boshqa qatlamlari bilan uzviy bog'liqlik jihatlari bor. Bulardan biri so'z yasalishi bo'lib, unda semantik moslashuv, derivatsiya kabilar faol ishtirok etadi. O'zlashtirib olingan terminlarning xarakteri, predmet va fikrlarni bildirgan yana o'sha terminlar dunyo madaniyati tarixi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqadiki, o'zlashtirish jarayoni har bir sohada mavjud, demakki deyarli barcha terminologiya internatsional (baynalminal) bo'lishi mumkin.

YE.V. Filippovaga ko'ra, terminlar bir xil strukturaga ega bo'lishiga qaramasdan, boshqa sohada ham uchratish mumkin, ya'ni u ham Arnoldning fikriga qo'shiladi. va misollar keltiradi:

aviator`s ear – aviatorning qulog'i emas, balki qon bosimini to'satdan tushib ketishi natijasida o'rta quloqchaning shamollashi;

boxer`s encephalopathy – bokschining ensefalopatsiyasi emas, balki bokschilarda uchraydigan travmatik ensefalopatiya;

wool- sorter`s disease – yungni saralaydigan kishining kasalligi emas, balki ularda uchraydigan sibir yazvasining ko'krakka tushadigan shakli.

Ushbu misollarda ko'rinib turibdiki, aviatsiyaga oid (aviator), sportga oid (boxer) va qo'ychilikka oid (wool – sorter) terminlar meditsinada ishlatilishi

kuzatilgan. Bu misollardagi birinchi ot qism kasbni yoki biror ish faoliyatni bildirsa, ikkinchi ot qismi esa ta'na a'zosi yoki organ nomini bildiradi. Bu esa idiomatik hisoblanadi.

A. A. Refarmatskiy terminga tarif berar ekan, “terminlar – bu maxsus soʻzlardir” degan xulosaga keladi.⁴⁰

A.B.Kalinin muayyan fanlar kasb-korlikda ishlatiladigan soʻzlarni “maxsus leksika”da deb ataydi va uni ikki guruhga boʻladi:

1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda terminlar kiradi. Termin – bu ilmiy – texnika, qishloq hoʻjaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarning atamasi boʻlgan soʻz yoki soʻzlar birikmasidir.⁴¹

2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi.

“Maxsus leksika”ni manna shu tarzda ikki guruhga boʻlish tamoyiliga oʻzbek tilshunosligida ham amal qilinmoqda. Masalan:

“Terminlar ... fan va texnikaga oid tushunchalarni shuningdek, kasb hunarga oid tushunchalarni ifodalab keladi. Mana shunga koʻra terminlarni asosan ikki katta guruhga: professional va ilmiy terminlarga ajratish mumkin”.

Kasb-hunarga oid boʻlgan soʻzlar professionalizm, professionalizmlar yigʻindisi esa professional leksika deyiladi. Termin fan, texnika sanʼat sohasidagi bir aniq tushunchani ifodalaydigan soʻz yoki turgʻun iboradir.

Terminlar lugʻatning boshqa qatlamlaridan alohida qilib oʻrganilmaydi. Sivilzatsiyaning rivojlanishi va oʻsishi bilan koʻpgina maxsus tushinchalar har bir kishiga maʼlum boʻlib bormoqda va ularning har kunlik soʻzlashuv nutqlariga aylanmoqda. Radio va televizorga ega uylarda antenna teletayp tranzistor kabi radio atamalar barchaga maʼlum boʻlib bormoqda. Shunday jarayon paytida ular (terminlar) oʻzlarining maxsus terminologik harakatlarini yoʻqotadi va maʼnolari jihatidan oddiy soʻzlarga oʻxshab qoladi. Elementlarning doimiy ichki oʻzgaruvlari ham oshib boraveradi. Har kuni ishlatiladigan ingliz lugʻati, asosan yuqori

⁴⁰ А.А. Реформатский /1955/80

⁴¹ А.Б. Каланин /1971 /135

chastotaliligi va polisemiya bilan xarakterlanuvchi qismi yangi terminlarni paydo qilishga ham manbaa bo‘la oladi.

Fan va texnikaga bo‘lgan qiziqishning tobora ortib borayotganligi bois gazeta; jurnal va fantastik asarlardan kun sayin yangidan yangi atamalar kirib kelmoqda.

Shunday qilib, terminologik birliklarning ko‘pchilik qismi (ma’noviy komponentidan tashqari) o‘z semantik tizimida “ijtimoiy dunyoqarash”ni tashkil qiladi yoki boshqacha ta’riflaganda professional so‘zlashuvning ma’lum doirasi bilan aloqalarni anglatuvchi ijtimoiy shartlangan turli konnotatsiyaga ham ega bo‘ladi.

Terminologik birliklarni ijtimoiy konnotativ belgilari asosiga ko‘ra inson faoliyatining aniq bir doirasiga kiritish qiyinligi ijtimoiy faoliyatning ko‘p tomonli ekanligi, uning turlarini o‘sishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli biror tilda so‘zlashuvchilar u yoki bu terminologik doimo qo‘llanilayotgan professional kommunikatsiya doirasini belgilashlari mumkin. Masalan, tangens atamasi ko‘pincha trigonometriya bilan, yanada kengroq qilib aytsak, “matematika”ga oid.

Terminlar borasida so‘z ketarkan yana bir olimning fikrini bayon qilmoqchimiz. T. M. Penkova filologiya nomzodini olish uchun yozgan ilmiy ishida termin, terminologik tizim va terminologik maydon tushunchalariga ta’rif beradi. Uningcha, termin – bu maxsus tushuncha (ma’no)ga tenglashtirilgan va chegaralangan, mos talqiniga ega so‘z yoki qotib qolgan so‘z birikmasi.

Ko‘pgina ko‘rib o‘tilgan terminlarni xizmat ko‘rsatish, savdo, marketing, ilmiy-tadqiqot sohalarida uchratish mumkin. Bularga qiziqish esa mamlakatimizning iqtisodiy yuksalishi sari ortmoqda. Shu sababli terminlarning paydo bo‘lishi va mavjudligi qonuniy xarakterga ega bo‘lib, o‘sha til jamiyatida kerakli faoliyat doirasida o‘z aksini topgan.

“Termin” umum iste’moldagi so‘zdan quyidagi belgilarga ko‘ra farqlanadi:

1) termin-umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo‘lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so‘z yoki birikmadir;

2) termin-konkret narsa-predmet, ashyo hamda mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;

3) termin uchun muayyan ta'rif zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarini ravshanroq ko'rsatish mumkin.

O'zbek tili lug'aviy tarkibining asosini tashkil etuvchi asli o'zbekcha, fors-tojikcha, arabcha leksemalardan iborat iqtisodiy terminlar sinonimiyasini darslik va qo'llanmalarda, lug'atlarda va boshqa manbalarda bot-bot uchratib turish mumkin. Masalan:

bitim-shartnoma	xarajat-chiqim
boshqarma-mahkama	xaridor-buyurtmachi
daromad-kirim	xaridor-mijoz
foydaxo'r-chayqovchi	ustama-qo'shimcha
mezon-o'lchov-belgi	uyushma-birlashma
nazoratchi-tekshiruvchi	sarmoya-mablag
pul-aqcha	sarf-xarajat-chiqim
qarzdor-nasiyador	chorakor-koranda

Ba'zi ingliz tilidagi iqtisodiy terminlarning sinonimlari so'z birikmalaridan iborat:

sovereignty – supreme authority
 authority – person in command
 committee – a group of persons
 referendum – a direct popular vote
 declaration – in common law
 constitution – a legal document
 republic – a state with on monarchy

prisedent – hade of state

Ruscha-baynalmilal terminlarni tarjima qilish, ya'ni kalkalashtirish natijasida ham terminologik sinonimiyaning aralash turi yuzaga keladi. Masalan:

министр - vazir

администратор – ma'mur

бизнесмен - usta savdogar- ishbilarmon

орган - a'zo

стратегия – ijtimoiy siyosiy kurash

орбитаж - hakamlar sudi

общий - yalpi

субъект - shaxs

кризис – keskin burilish

палата – qo'mita.

Ba'zi hollarda morfologik usulda, ya'ni affikslarning qo'shilishidan hosil bo'lgan bir asosli leksemalar yonida shu asos ishtirokida hosil qilingan birikmalar paydo bo'lib qoladiki, bu ham o'ziga xos sinonimiyaning yuzaga keltiradi. Masalan:

Демократик – demokratik jamiyat, partiya – partiya a'zolari , modellashtirish-model asosida qurish, siyosatchi – siyosiy ishlarda ishtirokchi, kodeks – kodeksda belgilanga me'yorlar, federatsiya – federatsiyalashtirish, senator - senat a'zosi, liberal – liberal partiya.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida tilimizga ko'pdan-ko'p terminlar (atamalar) kirib kelmoqda. Bularning muayyan qismi ona tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchallashtirib berilmoqda, ma'lum qismi esa baynalmilal o'zlashma sifatida ishlatilmoqda.

Iqtisodiyot terminlarining o'zbek tilida qo'llanilishida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

1. Ko'plab terminlar tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchallashtirilgan. Bunda bir guruh terminlar o'zbek tilidagi tayyor muqobillari bilan berilmoqda, ma'lum qismi esa tarjima qilinib ishlatilmoqda, bir qismi esa o'zbek tili qonun-qoidalari asosida yasalmoqda. Masalan: auktsion-kimoshdi, makler-dallol,

kommersant-tijoratchi, kommissionie voznagrajdeniya-vositachilik haqi, ekonomika-iqtisodiyot, chek na pred'yavitelya - oq chek, shaxssiz chek, aktsioner-aktsiyador, biznesmen-bizneschi va hokazolar.

2. Yana bir usul dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ishlatilib kelinayotgan baynalmilal terminlarning o'zbek tiliga ham o'z holicha o'zlashtirilishidir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, yangidan kirib kelayotgan terminlarning hammasiga ham o'zbekcha muqobilini topish qiyin. Shuning uchun ularning asosiy qismi dunyoning ko'pchilik mamlakatlari tillarida bir shaklda o'z asl holicha ishlatiladi va bu qo'llanish dunyo bizneschilari axborot almashinuvi uchun qulay. Masalan: auditor, avizo, valuta, lizing, menedjer.

3. Terminlarning ma'lum qismi turli muqobillarda har xil qo'llanildi. Chunonchi, rus tilidagi "aktsionernoe obshchestvo" termini o'zbek tilida aktsionerlik jamiyati, hissadorlik jamiyati, aksioner jamiyat kabi variantlarda, "barter" termini mol ayriboshlash, tovar ayriboshlash, muvozanat, barter variantlarida, "broker" termini broker, dallol, kelishtiruvchi, bitishtiruvchi, vositachi variantlarida, "demping" termini esa demping, arzonga sotish, narxni tanlash, molni chetga juda past narxda sotish kabi variantlari ishlatilyapti.

Boshqa tillardan o'zbek tiliga kirib kelayotgan iqtisodiy terminlar dastlab mutaxassislar va atamaqo'm muhokamasidan o'tmog'i, so'ngra Oliy Majlisning tegishli qo'mitasidan tasdiqlanmog'i lozim. Ana shundan so'ng bunday iqtisodiy terminlar qonuniy kuchga kiradi va ularni bemalol qo'llash mumkin.

Xalqaro aloqalarga oid atamalar boshqa sohaga oid terminlardan maxsus terminlarga boyligi, so'z qo'llashdagi an'anaviylik va ayrim sintaktik iboralarni nisbatan ko'proq ishlatilishi bilan ajralib turadi. Biror matnda maxsus terminlarning ko'p miqdorda bo'lishi, ayniqsa yaqinda yangitdan paydo bo'lganlari (neologizmlar) va hali lug'atlarda qayd etilib ulgurmaganlari amaliyotda sezilarli qiyinchiliklarga olib keladi. Iqtisodiy va ijtimoiy tilning bu qadar yangi terminlarga boyligi terminlar til lug'at tarkibining tabiatan harakatchan qatlami ekanligi bilan izohlanadi. Tilning lug'at tarkibi - uzluksiz ravishda to'lib boradi va bu lingvistik hodisa fan va texnikaning rivojlanish, ularning jamiyatdagi

mavqeining oshishi hisobiga, soʻngi yillarda fan va texnika taraqqiyotining intensiv suratlarda oʻsish natijasida yuzaga kelgan yangi tushuncha va hodisalarni atash, nomlash uchun yaratilgan yangi maxsus terminlar hisobiga yuz bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirib oʻtilgan terminologiya borasida ilmiy ish olib borgan olimlarimizning fikrlariga eʼtibor qaratiladigan boʻlsa, olimlar bu tushunchalar oʻrtasidagi prinsipal farqini terminlar majmuini tartibga solingan yoki solinmagan, deya belgilashmoqda. Boshqacha qilib aytganda, terminologiyaning terminologik tizimga aylanishida uning tartibga solinganlik omili muhim ahamiyat kasb etadi. Terminologiyaning tartibga solinishi nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyati katta boʻlgan masaladir. Terminologiyani tartibga solishning samaradorligi terminlar bevosita qoʻllanadigan quyidagi holatlarda yaqqol koʻrinadi: kasbiy taʼlimni toʻgʻri tashkil etishda, ishlab chiqarish amaliyotida boʻladigan ogʻzaki muomalada, ilmiy va ishlab chiqarish jarayonlaridagi oʻzaro yozishmalarda, matbaachilikda, chet el adabiyotlarini tarjima qilishda.

Til faqat oʻz termin elementlar hisobiga terminologiyasini qura olmaydi. Til qurilish jarayoni shuni koʻrsatadiki, dunyoda sof tilning oʻzi umuman mavjud emas. Har doim boshqa tillardan termin oʻzlashtirish jarayoni sodir boʻlib turadi, bu jarayondan chekinish mumkin emas. Ammo ehtiyoj sezilmagan holatlarda ham xorijiy terminlarni suniy ravishda tilga olib kirish har doim oʻzini oqlayvermaydi, Bunday holatlarda koʻproq oʻz til imkoniyatlaridan foydalanish va bunda termin ifodalash lozim boʻlgan tushuncha mohiyati bilan termin oʻrtasidagi munosiblikni saqlashga eʼtiborni qaratish lozim. Koʻp hollarda baʼzi tushunchalarni ifodalovchi terminlar isteʼmolda mavjud boʻlmaydi, natijada bunday tushunchalar oʻta muhim va ahamiyatli boʻlishiga qaramasdan. Keng tarqalish imkoniyatidan mahrum boʻladi. Yuqorida aytib oʻtilgan kamchiliklarning ayrimlari oʻzbek tili terminologiyasida ham mavjuddir. Xususan, tilimizda ayni bir termini birdan ortiq tushuncha uchun qoʻllash, bir tushunchaning turli terminlar bilan atash, variantlilikning mavjudligi, rus tili va u orqali Yevropa tillaridan oʻzlashtirilgan terminlarning tushuncha mohiyati toʻgʻri ask ettira olmasligi, bir tushunchani

ifodalovchi terminlarning noqulayligi sabab bo'luvchi ko'p komponentlilik holatining mavjudligi, xorijiy gterminlarning keragidan darajada qollanilishi, ayim terminlarning yozilishidagi har xillik kabi terminoligiyaning yetakchi tendensiyasiga zid keluvchi holatlar ko'plab uchraydi. O'zbek terminologiyasidagi bunday salbiy holatlarning mavjudligi sohaviyterminologiyalarni tartibga solish borasida hali ko'p ishlar qilinishi lozimligidan dalolat beradi.

II. BOB. LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKNING HOZIRGI ZAMOMN TILSHUNOZLIGIDAGI O'RNI

2.1 Lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy adabiyotlardagi tahlili

“Til” atamasining mazmuni va asliga murojaat qilinganda “til”, “nutq” va “nutq faoliyati” tushunchalarini ilk bora farqlab bergan, XIX-XX asrning tanikli tilshunosi F. De Sossyurni e’tibordan chetda qoldirib bo’lmaydi. Nutq faoliyati-muayyan xalqning keskin imkoniyatlari tizimidir. U g’oyatda ko’p obrazli bo’lib, fizika, fiziologiya va psixolingvistika sohalari bilan bir qatorda kesishadi. Nutqiy jarayonlar majmuasida F. De Sossyur ikki aspektni ya’ni til va nutqni alohida ta’kidlab o’tadi. Til bu grammatik sistema va lug’atdir, ya’ni ularsiz nutqiy muloqotni amalga oshirib bo’lmaydigan til vositalarning majmuidir. Til leksik va grammatik sistema sifatida bir lisoniy umumiylikga mansub bo’lgan individ ongida mavjud bo’ladi. Til – bu ijtimoiy mahsul, insonlarning bir-birini o’zaro tushunish vositasi, u individga bog’liq emas.

XX asr boshlaridan buyon ko’plab ilmiy nazariyalar, til va madaniyat ajralmas birlik degan g’oyaga asoslana boshladi. Madaniyat tilshunoslik bilan shunchaki yonma-yon soha sifatida emas balki “inson siri, til va matn sirini chuqur tahlilsiz tushunib bo’lmaydi”⁴² degan fenomen sifatida tadqiq qilinadi.

Tilshunosligida yangi yo’nalish sifatida etnolingvistika, lingvokulturologiya til xarakteri va millat xarakterining o’zaro aloqadorligini tadqiq qilishga kirishar ekan, u milliy til va milliy madaniyat mushtarakligidan kelib chiqqan holda tildagi lisoniy birliklarning lisoniy va madaniy belgilari ahamiyatini tekshirishni asosiy vazifalar sifatida qo’yadi. Etnolingvistikaning lingvomadaniyatshunoslik bilan farqli xususitalarini aniqlashga urunib, tadqiqotlar natijasida etnolingvistikaning hozirgi kundagi ma’lumotlar, axborotla manbaida tarixiy xususiyatlarni izlab, tahlil qilish bilan shug’ullanadi.⁴³

Til va madaniyat mushtarakligi masalasi bilan asosan etnolingvistika va lingvokulturologiya sohalari shug’ullanib kelmoqda. Ma’lumki, til insoniyat kashf

⁴² Лингвокультурология: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: “Академия”, 2001. С.59.

⁴³ В.В.Воробьев. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания. Тверст Давлат университети. 2001. С.103.

etgan eng muhim va buyuk kashfiyotlardan biri sanaladi. Til ongli mavjudot bo'lmish inson aql-zakovati mahsuli, ijtimoiy munosabat va taraqqiyotning birlamchi omili sifatida e'tirof etiladi. Bugungi kungacha inson tili va uning hodisa, qonuniyatlari, shakllanish hamda taraqqiyot bosqichlari, alohida tillarga xos xususiyatlar yuzasidan ko'plab tadqiqotlar, izlanishlar amalga oshirilgan. Til tasnifiga tayangan holda bevosita tafakkur voqelikning yig'indisidir, bu bilan birga shuni tan olish kerakki idrok birlamchi, uning muhim xususiyati insoniyatni qolgan barcha tirik mavjudodlardan ajratib turadi. M.V. Lomonosovning o'tmishda aytilgan va hozirda odilona fikr deya tan olingan so'larini esga olsak "Oллоh tomonidan berilgan hayvonlardan ajratib turuvchin eng oliy janob qobilyat tafakkurdir, birlamchi so'zdir".⁴⁴

"Til va madaniyat" muommosining tadqiq qilinishining I. G. Olshanskiy muammoni o'rganish uchun uch xil yondashuvni taklif etgan. Ulardan birinchisi, faylasuflar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib (S. A. Atanovskiy, G.A. Brutyan, E. S. Markaryan), til va madaniyatning bir tomonlama uyg'unligini inobatga olib tuzilgan. Voqelikdagi o'zgarish tufayli til ham undagi madaniy va milliy stereotiplar ham o'zgarib boradi. Muhtasar qilib aytganda, davr o'tgan sayin madaniy milliy andozalar va tilning o'zi ham o'zgaradi. Ikkinchi yondashuv esa tilning madaniyatga ko'rsatadigan ta'sirini o'zida taqazo qiladi (V. Gumbold, A.A. Potebnya, Y.L. Vaysgerber). Uchinchi yondashuv esa tilning va madaniyatning asosiy tarkibiy qismi, madaniyat ham tilning tarkibiga kirgan asosiy birlik hisoblanadi.⁴⁵

Tilshunosligimizning bugungi kundagi faoliyatida yangicha o'zgarish va yondashishlarning guvohi bo'lmoqdamiz. Dastlabki yangicha yondashishlar zahirida til va nutqni farqlash asosiy omil bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, bugungi kunda tilshunoslikda yangi yo'nalish va sohalar sifatida e'tirof etilayotgan lingvomadaniyatshunoslik, kognitologiya, pragmatika, pragmalingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, etnosotsiopragmatika kabilarning shakllanishiga

⁴⁴Российская грамматика. Наставление первое

⁴⁵ Олшанский И.Г. Лексика, фразеология, текст: лингвокультурологические компонентк [Текст]//Язык и культура: сб. обзоров. М., 1999. –С 18-19.

ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tilshunosligimizda endigina shakllanayotgan mazkur soha va yo'nalishlar birdaniga yoki o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Albatta, bunday o'zgarish va yondashuvlar tillararo, xalqlararo, madaniyatlararo aloqalar natijasida yuzaga kelayotganligi barchaga ma'lum. Til hodisalarini va ularning boshqa yondosh hodisalar bilan bo'lgan munosabatlarini o'rganish, shu asosda tilni va uning mohiyatini, jamiyat, tafakkur, madaniyat, ma'naviyat, siyosat kabi ijtimoiy hodisalar bilan munosabatlarini belgilash tilshunosligimizning dolzarb masalalaridan sanalmoqda.

Hozirgi davr fan taraqqiyotida antroposentrik g'oyaviy intilishlar, logosentrizemning prinsiplariga tayanib, madaniy bo'shliqda qadriyat ma'nolarini sodir bo'ldishi tilni manba o'rnida tan olish demakdir. Bu bo'shliq markazida bir belgi joylashgan bo'lib, diskursiv ma'noli ildiz o'tmishga borib taqaladi, so'zning kuchi va yaralishi ma'noning saqlanib qolgan holatda yetkazilishi ko'zda tutadi. XX asr ilim fandagi turli hil sohalarning bir biriga bog'liq bo'lgan moyilligini aniqlash va belgilash orqali fanda alohida xususiyat kasb etadi. Har bir shaxs milliy madaniyatning bir bo'lagi bo'lib u o'z ichiga milliy an'analarni, til, tarix va adabiyotni o'zida mujassamlashtirgan. Mavjud kunda iqtisodiy, madaniy va fan millatlar orasida tobora yaqinlashib bormoqda. Bundan tashqari, ichki madaniy aloqalardagi tadqiqotlar shuni ifoda qiladiki, ayni vaqtda til va madaniyatning bo'g'liqligi va tilnig o'ziga xosligi bilan muhim ahamiyatga egadir. Madaniy izlanishlar davomida bo'lgan barcha say harakatlar lingvomadaniyatshunoslikning diqqat markazida aylandi. Lingvomadaniyatshunoslik lingvistikaning alohida bir mustaqil sohasi bo'lib XX asrning 70- yillarida Emil Benvenist uchlik sistemasi (til, madaniyat va insoniylik) asosiga ko'ra paydo bo'lgan. Bundan ko'zlangan maqsad mamlakatning til va madaniyat asoslarini til o'rganish asnosida psixologik metod orqali faollashtirish bo'lgan. Bu sohada A. Wierzbickaya, R.M. Keesing, R. Langacker, V. Maslova, V. Karasic, S. Vorcachev, V. Telia, V. Shaklein, F. Vorobev, J. Stepanov, E. Levchenko, V. Kononenko, V. Zhayvoronok kabi tilshunos olimlar turli xil ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. V. Maslova tadqiqotlariga ko'ra "lingvomadaniyatshunoslik" atamasi fanda tilshunoslik va

madaniyatshunoslikni kesib o'tuvchi fan ma'nosini bildiradi. Bu fan millatning madaniyatini tilda aks ettirishni va mustahkamlashni o'rganadi.⁴⁶

Rus tilshunoslaridan biri Y.D. Apresyan, har bir til muayyan olam tushunchasi ma'lum uslub orqali tasvirlanadi deya ko'zda tutadi (idrok va tizimga) bu shuni anglatadiki, til tafakkurni yagona tizimda ifodalanadi, va albatta barcha foydalanuvchilar uchun o'zida qat'iy "qo'shma falsafiy" majburiy holatga ayninishini ko'rsatib beradi.⁴⁷

V.A. Maslova ta'kidlaganiday, inson aqlini, insonning o'ziday, tildan nutq yaratish hamda hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur bo'lmaydi. U o'rinli ko'rsatib o'tganidek, keyingi o'n yilliklarda hozirgi tilshunoslikda mazkur paradigm doirasida shakillangan kognitive tilshunoslik va ligvokulturologiya(lisoniy madaniyatshunoslik) yo'nalishlari tildagi madaniy omil va insondagi lisoniy omilga qaratilgan bo'lishi lozim.

“Lingvokulturologiya tilni tilni madaniyat hodisasi sifatida o'rganadi. Bu dunyoni milliytil prizmasi orqali o'ziga xos tarzda ko'rish bo'lib, bunda til alohida milliy mentallikning ifodasi sifatida isshtirok etadi”⁴⁸

Madaniyat tushunchasi eng muhim etnomadaniy kategoriya bo'lib, mukammal semantik asos, tushunchaviy, obrazlilik mohiyati, muhim tarkibiy qismlardan iborat. V.I.Karasik ethno-, socio- o'zaklarini alohida madaniy tushunchalarga ajratgan. Murakkab fenomen bo'lishiga qaramay, mavhum holatlarda ular umumiylashadi, umumiy tushuncha „life”-hayot „nature”-tabiat, va „existence”-borliq so'zlarileksikologik va farzeologik birliklarda, maqol va matallarda turlicha ifodalanadi.⁴⁹

Shu masala va mavzu doirasiga aloqador bo'lgan til va madaniyat munosabati, tilning madaniyatga, o'z navbatida, madaniyatning tilga ta'siri, til hodisalarida etnik madaniyatning namoyon bo'lishi kabilarni o'zbek tili misolida tadqiq qilish maqsad va vazifalari ham ijtimoiy zarurat kasb etmoqda. Til va etnik

⁴⁶Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.А. Маслова. – М. : Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.

⁴⁷Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. М., 1966.

⁴⁸В.А.Маслова. Лингвокультурология. М.: Academia, 2001. С.8.

⁴⁹В.И.Карасик «Языковой круг: личность, концепты, дискурс». Волгоград, 2002

madaniyat masalasi tadqiqi, o'rganilishi endigina olimlarimiz diqqatini o'ziga jalb qilmoqda.

Til umubashariy va umuminsoniy qadriyatga daxldor bo'lsa, ilmiy til milliy qadriyat, tilning lahja va shevalari etnik qadriyat ifodalovchisi sifatida mavjud. Tilning qadriyatlar tizimi bilan munosabati lingvomadaniyatshunoslik sohasidagi eng chigal va murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Til qadriyatmi, qadriyat ifodalovchisimi degan savollarning qo'yilishi va unga nisbatan javoblarning turlichaligi va ko'p hollarda birining ikkinchisiga ziddiyatli mohiyatga egaligi ham ana shu holatlar bilan bog'liqdir. Ko'p asrlardan beri til va madniyat, til va qadriyat munosabati muammosi kun tartibidan tushmay kelmoqda. Muammo bugungi kunda kun tartibida bor bo'yi bilan namoyon bo'ldi va munozaralar maydoniga aylandi. Muammo uch yo'nalishda qaralmoqda: qadriyat va til o'zida butun qism munosabatini aks ettiradi; til qadriyatning ifodalovchisidir; til qadriyatning unsuri, shakli ham emas. Ammo har qanday til sohibi shu tilga mansub millat, etnos madaniyatining ham sohibi ekanligi e'tirof etiladi. Til madaniyatining ko'di, uning ifodalovchi belgisi, unga tayangan holda madaniyatning mohiyati haqidagi tasavvurlar shakllandi. Shu asosda aytish mumkinki, til har qanday holda ham o'z sohibining milliyligi va qaysi mentalitetga mansubligini ko'rsata olar ekan, muayyan madaniyat muhitida tegishli lisoniy muhit ham mavjud ekan, demak, til va qadriyat, til va madaniyat munosabati makoniy va zamonaviy umumiylik asosida o'zaro bog'lanadi.

Til tasnifiga tayangan holda bevosita tafakkur voqelikning yig'indisidir, bu bilan birga shuni tan olish kerakki idrok birlamchi, uning muhim xususiyati insoniyatni qolgan barcha tirik mavjudodlardan ajratib turadi. M.V. Lomonosovning o'tmishda aytilgan va hozirda odilona fikr deya tan olingan so'larini esga olsak "Olloh tomonidan berilgan hayvonlardan ajratib turuvchi eng oliy janob qobilyat tafakkurdir, birlamchi so'zdir".⁵⁰

Shuni takidlab o'tish joizki, lingvomadaniyatshunoslik madniyat ilmiga va til ilmiga taluqli bo'lgan fandır. U fanda milliy madaniyat hususiyatlar

⁵⁰Российская грамматика. Наставление первое

tushunchasini aniq bir birligi va uning tildagi aks ettirilishini ifodalaydi. Lingvomadaniyatshunoslikning maqsadlaridan biri til bezaklarini o'z qismlarida o'rganilish metodini kengroq talqin etgan holda, ularni madaniyatda saqlab qolib kelajak avlodga yetkazib berishdan iboratdir.

Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifalaridan biri til va madaniyatni o'zaro tasirini o'rganish va tasvirlash. Tilshunoslik nazariyasi bo'yicha nom qozongan yirik olimlardan biri V.Telia lingvistika sohasidagi fikrlariga ko'ra til va madaniyat ta'sirini o'rganish, til va etimologiya, til va milliy mentalitet o'rganilishi demakdir.⁵¹

Til va madaniyat ta'sirining ishlash harakati va bajarilish tartibi tahlillari lingvomadaniyat usullarining amaliy texnikasining to'plam hisoblanadi. Shuni takidlab o'tish joizki, tadqiqot olib borilayotga jarayonida turli xil metodlardan foydalanish mumkun ammo bu sohada tushunchaviy, tasviriy, kontekstal, amaliy, taqqoslash metodlari bu soha uchun o'rinlidir.

Insoniyat tilining bugungi taraqqiyoti va uning turli aspektlarda tadqiqi yuqorida qayd etilgan tilga xos belgilarning mavjudligini tasdiqlab turadi. Til va uning turli ijtimoiy hodisalar bilan o'zaro munosabati masalasi bugungi kun tilshunosligining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Jahon tilshunosligida til va undan foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqadorlikka xos bo'lgan masala ham shular jumlasidan sanaladi. Shuningdek, til-inson-madaniyat munosabati masalasini tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish ham zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Tilning jonli nutqda namoyon bo'lishi va uning nutqdagi imkoniyatlarini til-inson-madaniyat aspektida o'rganish jarayonida etnolingvistika va uning zaminida hosil bo'lgan lingvokulturologiya, frazeologik lingvomadaniyatshunoslik, konseptologik, leksikografik, lingvodidaktik lingvomadaniyatshunoslik, sotsiopragmatika kabi tilshunoslikka aloqador bo'lgan yangi yo'nalishlar yuzaga kela boshladi. Bu kabi yo'nalish va sohalarning barchasi inson tilining etnik

⁵¹ Телия В.Н. Основные постулаты лингвокультурологии / В.Н. Телия // Филология и культура : материалы II междунар. конф. 12–14 мая 1999 г. : в 3 ч. / отв. ред. Н.Н. Болдырев. – Тамбов : Изд-во ТГГУ, 1999. – Ч. III. – С. 14–15.

madaniyatni aks ettiruvchi omil yoki vosita sifatidagi xarakterli xususiyatlarini ochib berish bilan bog'liqligi jihatidan ham alohida ajralib turadi. Til ana shu xususiyatlarini jonli, amaldagi nutqda yana ham yorqin va yaqqol ifodalaydi.

Jamiyat va insoniyat taraqqiyotining o'zi ham tilshunoslikning bu kabi yangi soha va yo'nalishlarini taqozo etmoqda. Chunki har bir millat va elatning o'ziga xos, boshqalarnikiga o'xshamaydigan muloqot meyorlari, so'z va iboralari mavjudki, ularni bilmay turib turli mamlakat xalqlari o'zaro bir-birini to'liq tushuna olmaydi, muloqotga kirisholmaydilar. Aynan shuning uchun ham chet tillarini yoki bir tilda so'zlashuvchi turli hududlarda yashovchi kishilar tilini bilish, o'rganishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Buning uchun muayyan tilning nutqiy voqelanishini, muloqot xulqini o'rganish talab qilinadi.

Lingvomadaniyatshunoslikning maxsus tadqiqot maydoni bu matn tahlilida madaniyatni chinakkamiga saqalab qolishdan iborat. Bu yerda tadqiqot taxnikasini talqin qilishda psixolingvistika metodidan foydalanish mumkun.

Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy katigoriyasi tushunchadir, ya'ni ongda va madaniyatda tilni bir yig'indi sifatida yo'naltirilishini an'anaviy ruhiyat deb belgilaydi.

Lingvomadaniyatshunoslik til bilan bo'g'liq barcha muammolarni- olam tasvirini tarixiy tilshunoslik orqali anglash, til yaratilishi, olamning ko'rinishi, tilni bilish jarayoni maydoni kabi masalalarning mabasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugun lingvokulturologiya rus va boshq axorijiy tilshunoslikda alohida lingvistik yo'nalish sifatida shakillandi va rivojlanib bormoqda, o'quv fani sifatida filologik oliy ta'limtizimiga kirib ham bo'ldi. Mamlakatimizda ham antropolingvistik yo'nalishdagi tadqiqotlar, asosan, qiyosiy aspektda bo'lsada, boshlangan. Lingvokulturologiya o'quv fani sifatida filologik ta'limga olib kirish yurtimizda yetuk filolog mutaxassislar tayyorlash ishiga foyda keltirishini takidlash joizdir.

Lingvomadaniyat (lingvokulturologiya) – zamoyaviy tilshunoslikning yo'nalishlaridan biri bo'lib, antroposentrik paradigma doirasida o'rganiladi. V.V.Vorobyovning ta'kidlashicha, lingvokulturologik tadqiqotlar

“zamonaviy lingvistikaning barcha tendensiyalar bilan moslashib, inson, fikrlash, tafakkur, ruhiy amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanib boradi”⁵²

V.N. Teteliyaning qarashlariga ko'ra esa, “lingvokulturologiya insoniylik faktoriga, aaniqrog'i, – tilda madaniy faktorga, lisoniy faktorning insonga ta'siri omillarini o'rganadigan fan. Bu esa lingvomadaniyatda – inson haqidagi fanda o'rganish markazida madaniyat fenomeni yotadigan antropologik paradigmaga predmetsifatida qaraladi.”⁵³

Lingvomadaniy an'analar til madaniyat quroli, uning bir qismi, shuningdek madaniyatning bir avloddan avlodga axborot tarzida saqlanib qolishi manbai hisoblanadi.⁵⁴ Shunga ko'ra, lingvomadaniyatshunoslik tilini madaniyat fenomeni sifatida o'rganadi.

V.A. Mamaslovaning konsepsiyasida bu borada V. N. Teteliyaning ilmiy ishlaridan farqli natijalarni ko'rish mumkin. Xususan lingvomadaniy tadqiqotlarda sinxroniya va diahroniya masalalari ham tadqiq qilinadi.⁵⁵

V.N. Teteliyaning qarashlariga ko'ra, til va madaniyatning sinxron tutashuvi lingvomadaniyatshunoslikning predmeti hisoblanadi: xalqning sinxron mentalitetida mavjud, olam jonli kommunikativ jarayonlarni o'rganadi.⁵⁶

V.A. Maslova lingvomadaniyatshunoslik tarixiy, zamonaviy lisoniy faktlarni ruhiy madaniyatning prizmasi orqali aks ettirishni anglatadi,⁵⁷ degan fikrni ilgari suradi. Aynan shuning uchun ham lingvomadaniyatshunoslik asosiy soha hisoblanadi.

Lingvomadaniyatshunosli statusi bo'yicha esa uning obyekt masalasi har doim muhokamalar ostida bo'lib kelgan. V.N. Teteliyaning tushunchasi bo'yicha, lingvomadaniyatshunoslik obyekti nafaqat milliy madaniy ma'lumot, balki

⁵² В.В.Воробьев. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания. Тверст Давлат университети. 2001. С.101

⁵³ В.Н.Телия. О методологических основаниях лингвокультурологии // Логика, методология, философия науки. Тезисы докладов. М.-Обнинск, 1995. С.89

⁵⁴ В.Н.Телия. О методологических основаниях лингвокультурологии // Логика, методология, философия науки. Тезисы докладов. М.-Обнинск, 1995. С.90.

⁵⁵ В.Н.Телия. О методологических основаниях лингвокультурологии // Логика, методология, философия науки. Тезисы докладов. М.-Обнинск, 1995. С.91.

⁵⁶ В.В.Воробьев. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания. Тверст Давлат университети. 2001. С.103.

⁵⁷ В.Н.Телия. О методологических основаниях лингвокультурологии // Логика, методология, философия науки. Тезисы докладов. М.-Обнинск, 1995. С.91.

umuminsoniy hamdir.⁵⁸ Masalan, Bibliya kitobida keltirilgan ma'lumotlarning birgina xalqa emas, turli xalqlarga tegishli bo'lishi mumkin. V.A. Maslova esa lingvomadaniyatshunoslik obyektni tarqoq ma'noda kelib chiqqan. Uning fikricha, bu fanning obyekti nafaqat muayyan xalqqa tegishli madaniy ma'lumot, balki, muayyan xalqqa yaqin, qardosh xalqlarga ham tegishli madaniy qadriyatlarni ham qamrab oladi.⁵⁹ V.N. Teliya lingvomadaniy tahlilni ichki kuzatuvchi nomidan, tildan tashqaridagi sferada tashkil qilishni taklif qiladi.⁶⁰ V.A. Maslovaning fikriga ko'ra tashqi kuzatuvchi sifatida tahlilni amalga oshirish ma'qulroq.⁶¹ Slisshkin esa konseptlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish uchun nafaqat til birligidan nutq birligigacha o'rganishni, balki, madaniyat birligidan til birligigacha o'rganish to'g'ri ekanligini isbotlab berdi.⁶²

Ikkinchi paradigm doirasida lingvonadaniyatshunoslikning asosiy vazifasi "birinchi, diskursga yoki bu madaniyat birligini ifoda qiladigan adekvat til birligining, ikinchidan, turli kommunikativ vaziyatlarda asosiy pragmatic funksiyalarning ma'lum madaniyatga nisbatan o'rganilishini taqazo qiladi."⁶³

Hozirgi kunda lingvomadaniy paradigm bo'yicha V.N.Teliya, V.A. Maslova, V.V.Varbyov, A.T.Xrolenko kabi lingvist olimlar samarali ishlari ko'zda ko'rinishidir. Bu yo'nalishga nisbattan turli olimlarning turlicha yondashuv va traktovkalari lingvomadaniy obrazini o'rganishga kata qiziqish uyg'otib kelmoqda. Shunday qilib, lingvomadaniyatshunoslikning tadqiqot markazida "jamiyat kundalik hayotning madaniy qadriyatlarga asoslangan milliy shakillarning muloqotning lisoniy maydoniga reprezentatsiyasi turadi".

2.2 Lingvomadaniy yondashuvda konseptual va kognitiv tahlilning o'rni

Lingvomadaniy tahlil ijtimoiy hayot darajasining tildagi aks etishini o'rganishda ham aktiv qo'llaniladi. Misol uchun o'zbek millatida keng uy, ko'p

⁵⁸ В.Н.Телия. О методологических основаниях лингвокультурологии // Логика, методология, философия науки. Тезисы докладов. М.-Обнинск, 1995. С.92.

⁵⁹ В.А.Маслова. Лингвокультурология. М., 2001. Б.37.

⁶⁰ В.Н.Телия. О методологических основаниях лингвокультурологии // Логика, методология, философия науки. Тезисы докладов. М.-Обнинск, 1995. С.91.

⁶¹ В.А.Маслова. Лингвокультурология. М., 2001. С.44.

⁶² Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. М.: Academia, 2000. С.113.

⁶³ Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. М.: Academia, 2000. С.116.

farzandli bo'lish, to'y tomosha qilish milliylikning ajralmas qismi bo'lsa, ingliz millati vakillarida bu narsag zarracha etibor qaratilmaydi. Ijtimoiy hayot, holatlar, haqidagi tasavvurlar o'zinig yillar davomida, vaqt o'tishi bilan ajralib turadi.

Til leksikasi insoniyat madaniyatini ifodalovchi vosita sifatida dunyoning bir biridan farq qilmaydigan xalqlarida aks etgan muayyan madaniy konseptual tushunchalarni aniqlashga va mazmun mohiyatiniochib berishga yordam beradi.

Lingvistika(semantika)ga kognitiv yondashuvda inson ongidagi struktur bilimlarning ma'lum turlarini qo'llash masalasi asosiy o'rinda turadi. Kognitiv ilmda bilimlar strukturasi turlicha tushunchalar: freym, ssenariy, skrept, geshtal't kabilar bilan ifodalanadi. «Xotirada egallangan bilimning aks etishini ifodalovchi tuzilmalar qatorida «skrept», «ssenariy», «kognitiv model», «mental model», «situasiya modeli» kabilar borligini olimlar e'tirof etadilar. Ayrim tadqiqot ishlarida esa semantika va gnoseologiya o'rtasidagi oraliq bosqichida obraz, geshtal't, freym, propozisiya, formula kabi namunaviy biriliklar yuzaga keladi deb ko'rsatilgan» . Atamalardagi bunday turli-tumanlik shu bilan izohlanadiki, ular butun mohiyati bilan bilimlarning turli xillarini anglatadi, qolaversa, yuqorida keltirilganidek, har bir olim bilimlarning u yoki bu strukturani ifodalashida o'z atamasini (yangiligini) qo'llashga harakat qiladi.

Madaniyatning til bilan o'zaro bog'liqligida murakkab psixolingvistik jarayonlardan biri bo'lgan – tarjima muhum ahamiyat kasb etadi. Tarjima ahboratining asl ma'nosini ifodalashda lingvistik birliklarning mosini toppish va ularni samarali qo'llashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. U o'z madaniyatimizning xorijiy til madaniyati bilan o'zaro munosabati va o'ziga hos tafovvtlarini hamda dunyoni hamda dunyoni anglash bilan bog'liq bo'lgan muayyan kognitivejarayonlarni ustun qo'yadi.

Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifodasini ochib beruvchi mexanizmlar qurshovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa chiqadi. Ma'lumki, inson narsa va predmet, hodisalarni bilishda, idrok qilishda qator mantiqiy-ruhiy harakatlarga ega bo'lgan faoliyatni amalga oshiradi. «....avvalo, narsa jonli

mushohada, bevosita kuzatish vositasida o'rganilib, uning xususiyati, qirrası, tomoni aniqlanadi, natijada bu xususiyat, dalil, hodisa to'planadi, saralanadi; ...aqliy dialektik tahlil usuliga o'tish ehtiyoji paydo bo'ladi». Ana shu aqliy tahlil (mantiqiy-ruhiy harakatlardagi faoliyat) ni amalga oshirishning bir necha bosqichlari qator manbalarda sanab o'tilgan.⁶⁴ Ularda berilishicha aqliy tahlilga qaratilgan faoliyatda dastlab ma'lum bir ob'ekt boshqa ob'ektlar qatoridan ajratib olinadi. Bunda, albatta, uning farqlovchi belgilari e'tiborga olinadi. Farqlovchi belgilar asosida boshqa ob'ekt bilan qiyoslash harakati amalga oshirilib, xotirada shu ob'ektga oid hissiy ramz shakllantiriladi. Bu ramzning lisoniy xotiradagi boshqa ramzlar bilan o'xshash tomonlari qidiriladi. Eng so'nggi bosqichda esa voqelikning bilishning muhim bosqichi-umumlashtirish amalga oshiriladi. Bu faoliyatlarning barchasi ob'ekt haqida tushuncha shakllanishiga xizmat qiladi. Mantiqiy faoliyat natijasi bo'lgan tushuncha obraz va lisoniy ma'no bilan umumlashib kognitiv lingvistika tarmoqlarida asosiy figura sifatida o'rganilayotgan konseptning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Til leksikasi madaniyatni ifodalovchi vosita sifatida dunyoning bir biridan farq qilayotgan xalqlarida aks etayotgan muayyan madaniy konseptual tushunchalarini aniqlashga va mazmun mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Siyosiy terminlarnig muayyan madaniyatning muhum konseptlarini ochib berishda kata ahamiyatga ega.

Konsept atamasi tilshunoslik tadqiqotlarida XX asrning birinchi yarmidan paydo bo'la boshladi. Bu atama ingliz tiliga oid so'z bo'lib, (conssept), rus tilida ponyatie (tushuncha) atamasi bilan tarjima qilinadi. Keyinchalik bu atama tushuncha atamasi bilan aralashtirib yuborila boshlangach, uning tom ma'nodagi mazmunini aniq shakllantirishga qaratilgan ishlar tadqiq qilina boshlandi. Lingvistik ensiklopedik lug'atda konsept atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "konsept bu – "so'z ma'nosi" kabi tushuncha bo'lib, faqat bog'lanishlar tizimi nuqtai nazaridan farqlanadi; ma'no-til tizimida; tushuncha ham mantiqda, ham

⁶⁴Tulenov J., G'ofurov Z. Falsafa. –Toshkent, 1997; АндреевИ. Д. Дialekтическая логика. –Москва, 1985; Панфилов В. З. Философские проблемы языкознания. Гносеологические аспекты. –М.: Наука, 1977.

tilshunoslikda tadqiq etiladigan mantiqiy munosabatlar va formalar tizimida bo'ladi"⁶⁵.

Konsept tushunchasini turli xil soha va yo'nalishlarda uchratishimiz va har bir sohada konseptning o'z ma'no va vazifasi borligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, psixolingvistika, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik⁶⁶ sohalari nuqtai nazaridan konsept talqinlari ko'rib chiqilgan.

Psixolingvistika nuqtai nazaridan konsept insonning psixik hayot qonuniyatlariga bo'ysunuvchi, shaxsning bilish va muloqot jarayonida dinamik xarakterga ega.

Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi. Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik fanlarining asosiy mavzusi konsept bo'lib, u tafakkur birligi sifatida millatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept hayotiy obraz, til birligini anglatuvchidir. Konsept orqali aniq tilni semantik oralig'i tuziladi. Konsept tabiatini tushuntirish va anglash til orqali kechadi⁶⁷. Konseptning o'zi tahlilsiz sistema, ammo boshqa konseptlar ostida harakat qiladi⁶⁸.

Konsept – bir millatga tegishli bo'lgan hayotiy tajriba natijalarini o'zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yig'indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa bo'lgan munosabati, bir millatning nimadir haqida o'y-fikrlar, qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan termin. Shu bilan bir qatorda konsept xotiraning operativ birligi bo'lib, fikriy, lisoniy, konseptual tizimlar va ong tili, borliq bilimlarni o'zichiga oladi⁶⁹.

Konsept insonni o'rab turgan olamni anglash natijasida orttirilgan bilimlar yig'indisi va tajribasida mavhum birlikni namoyon etadi. Bu qarashlar Yu.S.Stepanov xulosalarida ham keltirilgan. Uning fikricha, konsept inson

⁶⁵ Лингвистический энциклопедический словарь. – М1990.

⁶⁶ Никишина И.Ю. Язык сознание коммуникация. // "Понятие концепта в когнитивной лингвистике". – М., 2002. – № 21. – С.5-7.

⁶⁷ Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Изд.2-е, испр.и доп[Текст]/Ю.С. Степанов. – М.: Академический проект, 2001. – 590 с.

⁶⁸ Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 895 с.

⁶⁹ Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Московский гос. ун-т, 1996. – С.31.

ongidagi madaniyat bo‘lagi, bunday holatda konsept insoniyat olamini mental birligi bo‘lib madaniyatga kirgan. Konsept oddiy inson qiyofasida madaniy qadriyat yaratadi va madaniyatga kirib, ba’zi vaqtda madaniyatga ta’sir ko‘rsatadi⁷⁰. Shu qarashlarga N.D.Artyunova tomonidan aniqlik kiritilgan. Olimani fikricha, konsept bir qancha faktorlarni o‘zaro aloqa natijasi: folklor, milliy urf-odatlar, din, hayotiy tajriba, obraz, qadrlilik tuyg‘usi. Konsept o‘ziga xos madaniy qatlam, inson va olam o‘rtasidagi aloqa tasviri⁷¹.

Bizga ma’lumki, konsept lisoniy birliklar (so‘z, gap, matn) orqali yuzaga chiquvchi fikrlash jarayonining natijasidir. Konsept bizning psixikamizda aks etuvchi obyektiv borliq, predmet va hodisalar haqida ma’lumot, tushuncha, tasavvurlarni o‘zida tashishi, saqlashi, o‘zgaga yetkazib berishi bilan jamiyat a’zolarining predmet va hodisalarga bo‘lgan munosabatini qayd etishi bilan o‘ziga xosdir.

Turli madaniyatlarda konseptlar olami turlicha aks etadi. Konsept imkoniyati individual hissiy va madaniy tajriba natijasida til egalari tomonidan boyitiladi⁷².

Konsept ma’nosi murakkab tuzilgan. Shuning uchun olimlar tomonidan konseptga tizimli hodisa sifatida qaraladi. Bu tizim *qatlam* so‘zi bilan talqin qilinadi. Qatlam nuqtai nazaridan konsept turlarga ajratiladi. Bu turlar ikkita asosga qaratilgan. Birinchi asos – diaxronik, ikkinchisi – sinxronik. Diaxronik nuqtai nazariga ko‘ra konseptlar zamonaviy va tarixiy qatlamga ajratiladi. Sinxronik nuqtai nazarida konseptlar ostida yotgan obraz asosiga qaraladi⁷³.

Mana shu murakkabliklar V.A.Maslova ishlarida ham o‘rganilib chiqilgan. U konsept ma’nosiga ko‘p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o‘ylanadigan, balki ular o‘zlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnatatsiyani o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi⁷⁴ va konsept tuzilishida o‘zgacha nuqtai nazar borligini ta’kidlaydi. Konsept markazida qadrlilik turishi, u

⁷⁰ Степанов, Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Изд. 2-е. – М.: Академический проект, 2001. – С.43.

⁷¹ Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С.37.

⁷² Леонтович О.А. Россия и США: Введение в межкультурную коммуникацию. – Волгоград, 2003. – С.117.

⁷³ Рябкова Е.С. Альманах современной науки и образования // “Лингвокультурный концепт как элемент языка и культуры”. – М., 2012. – №4 (59). – С.187.

⁷⁴ Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – М.: Тетра Системс, 2004. – С.36.

madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrlilik prinsipi yotadi. Har bir konsept murakkab mental uyg'unligi, ma'noviy tuzilishdan tashqari insonni ifodalanayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy-individual komponentlarni o'z ichiga oladi, deb ta'kidlaydi.

Konsept tuzilishini o'rganishda boshqacha qarashlar ham mavjud. Masalan, buni Yu.S.Stepanov ishlarida kuzatamiz. U bir tomondan, konsept tuzilishida hamma turg'un tushunchalarni ajratadi, boshqa tomondan konseptni madaniyat asosiga aylantiradigan ichki tuzilish-etimologiyasini ko'rsatadi⁷⁵.

Z.D.Papova va I.A.Sternin esa konsept tuzilishini uch xil komponenti: obraz, ma'lumotlar saqlovchisi, tahlil maydoni haqida gapiradi. Konseptda obrazni mavjudligi umumiy predmet kodini xarakterlash bilan tushuntiriladi. Ma'lumot saqlashda esa konsept alohida kognitiv belgilarni kiritadi, predmet yoki holatni asosiy xususiyatlarini aniqlashtiradi. Tahlil maydoni u yoki bu aspektda ma'lumotlar orqali konseptni tahlil qilib, undan xulosaviy bilimlar oladi yoki unga baho beradi⁷⁶.

Olimlar fikricha, konseptni ma'no va tuzilishidan tashqari xususiyatlari ham mavjud. Konseptni barcha qabul qilgan xususiyati ko'p ma'noligi. Uning bu xususiyati uch pog'onada ko'rinadi. Ular quyidagilar:

1. Sistemada simvol madaniyat tashuvchisi, madaniyatda leksikografiyadan yozib olingan lingvistik holat saqlovchisi;
2. Til vositasida madaniyat saqlovchisi;
3. Matnda namoyon bo'luvchi⁷⁷;

Keltirilgan yondashuvlardan tashqari zamonaviy tilshunoslikda konseptni lingvomadaniy talqini ham mavjud.

Lingvomadaniy jihatdan konsept madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, uning tarkibiga belgilar, etimologiyasi, konsept tarixi, zamonaviy asotsatsiyalari,

⁷⁵ Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Изд. 2-е. – М.: Академический проект, 2001. – С.43.

⁷⁶ Попова, З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток – Запад, 2007. – С.82.

⁷⁷ Слышкин Г.Г. Лингвистика и межкультурная коммуникация. // "Лингвокультурный концепт как системное образование". – Волгоград, 2004. – № 1. – С.33.

unga munosabat yoki uni baholash kiradi. Kognitiv va til strukturasini bog‘lab turuvchi birlikka konsept deyiladi. Lingvomadaniyatshunoslikda konsept quyidagi til birliklarida ifoda etiladi: leksik va frazeologik birliklarda; nutq birliklarida (so‘z birikmasi, gap), grammatik tuzilishda. Keltirilgan til birliklarida konsept o‘z mazmunining ma’lum qismini bera oladi. Konseptda lingvistik ifoda vositalari yotadi. Lingvistik vositalar konseptni so‘z munosabatida lingvomadaniyatni namoyon qilishi uchun muhimdir. Leksik va frazeologik birlik til sistemasiga kiruvchi kommunikativ jarayonni talab etuvchi konseptlarda yashaydi. Konseptni to‘liq anglash uchun bir-biriga o‘xshash kategoriyalarni tushunish darkor. Bular qatoriga birinchi navbatda mantiqiy tushuncha va til ma’nolari kiradi⁷⁸.

Lingvomadaniyatshunoslikda konseptni bir tomondan so‘z, ikkinchi tomondan tushuncha bilan munosabati o‘rganiladi.

D.S.Lixachov fikricha, konsept so‘zni leksik-semantik turi bilan uyg‘unlashgan. So‘z ma’nolari belgilar bilan o‘ralgan konseptni tashkil qiladi. Konsept obyektiv olam obrazi, tashqi dunyo bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqador, so‘z esa faqat o‘z semantikasida odatda konseptni ochib beradi. Ammo olimlar fikricha konsept va tushuncha o‘rtasida sinonimik munosabatlar mavjud.

Lingvomadaniyatshunoslikda konsept logik tushuncha va leksik ma’noda har xil ma’noviy tuzilishni oladi. Jumladan, tushuncha va konsept kategoriyalari ikki xil yo‘nalishga ega. Tushuncha falsafa va mantiqqa; konsept esa matematik mantiq, madaniyatshunoslik, lingvomadaniyat, kognitiv lingvistika yo‘nalishlariga tegishli⁷⁹.

Xulosa qilib aytganda, konsept bir-biriga bog‘liq, bir butun qoidaga ega g‘oyalar yig‘indisi. Konsept tushunchaning obrazda, mazmun va belgida aks etuvchi tarkibiy shakllarida mujassamlashgan mohiyatidir. Konsept matnda bir butun ko‘rinishda namoyon bo‘lib, matnda aks etgan mazmunni ochib berishga xizmat qiladi. Konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o‘rinni egallagan bo‘laklari mavhumlikka ega bo‘lishi bilan

⁷⁸ Рябкова Е.С. Альманах современной науки и образования // “Лингвокультурный концепт как элемент языка и культуры”. – М., 2012. – №4(59). – С.187.

⁷⁹ Декларация прав культуры и ее международное значение // Д. С. Лихачев – Университетские встречи. 16 текстов/ науч. ред. А. С. Запесоцкий; СПбГУП. – СПб., 2006. – С. 34 – 37.

birgalikda, ular yagona negiz atrofida o‘zaro munosabatga kirishib birikadilar. Lingvokulturologiyada bu atama madaniy mental til ko‘rinishi, «inson ongidagi madaniyatning quyulib qolgan qismi; madaniyat, insonning mental borlig‘iga kiradigan, so‘z bilan ifodalanadigan tushuncha, tasavvur, bilimlar to‘plami» sifatida qaraladi. konsept ko‘rinmas tafakkur kategoriyasi va bu uning izohlanishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Shu sababli konsept tarkibining tizimiy xarakterga ega ekanligini e‘tirof etish ma‘quldir. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo‘lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo‘ladi.

Xususan, o‘tgan asrning boshlaridan boshlab o‘zbek tili va uning hodisalari, grammatik qonuniyat va xususiyatlari yuzasidan ham chuqur ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ana shu izlanish va tadqiqotlar natijasida tilimizning bebaho qiyofasi, o‘zigagina xos bo‘lgan tabiati, imkoniyatlari ochib berilmoqda, ular tufayli ona tilimizning keng imkoniyat va xazinasini haqida chuqur taassurotlarga ega bo‘lmoqdamiz. Biroq insoniyat tili, shuningdek, alohida tillarga xos jihat va qonuniyatlar yuzasidan olib borilgan kuzatish va talqinlarga qaramay, hanuzgacha birorta til va uning o‘ziga xos tabiati, nutqiy imkoniyatlari, til va tafakkur, til va madaniyat, til va jamiyat kabi hodisalarning o‘zaro munosabatlari to‘laligicha ochib berilmaganligi, til bilan bog‘liq barcha masalalar o‘z yechimini to‘la topmaganligi ma‘lum. Bunga esa tilning murakkab hodisa ekanligi, hatto tilning amaliy shakli sanaladigan nutqning ham murakkab tabiatga egaligini sabab qilib ko‘rsatish mumkin.

III BOB. INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI XALQARO MUNOSABATLARNI BILDIRUVCHI TERMINLARNING STRUKTURAVIY-SEMANTIK VA KOGNITIV –KONSEPTUAL TADQIQI

3.1 Xalqaro munosabatlarni bildiruvchi terminlarning strukturaviy va semantik tahlili

Leksema yasash sohasida tilning ichki rivojlanish qonunlari yaqqol ko'rinasi. Uning rivojlanishi va takomillashuvi bilan bog'liq holda yangidan vujudga kelayotgan modellar hamda so'z yasash usullari buningisbotidir.

Hozirgi zamon ingliz tilida anashunday usullardan biri – so'zlarni o'zaro qo'shib so'z yasash turlisha nomlanadi. Ba'zi adabiyotlarda “morfologik – sintaktik usul bilan so'z yasash”, “Grammatik uslub bilan so'z yasash” deb berilsa, ayrimlarida “leksik – sintaktik uslub bilan so'z yasash” atamasi qo'llaniladi. O'zbek tilshunosligida aynan shu usul bilan yangi termin hosil qilishni “sintaktik usul bilan termin yasash” deb yuritiladi.

Oddiy so'zlar ma'nosini o'zgartirish yo'li bilan yangi termin yasash ko'pgina tillarda xalqaro sohalarda lug'at boyligini oshirishga imkon beradi. Xalqaro terminlarning kattagina miqdori umumadabiy til so'zlarining, ijtimoiy va iqtisodiy tarmoqlardan olingan terminlarning ma'nolarini o'zgartirish yo'li bilan boyitilgan.

Terminlar yasashning bu usuli boshqalardan shunisi bilan farq qiladiki, boshqa hollarda yangi tushunchani ifodlash uchun m qaytadan yangi shakl (ya'ni elimentlari yangicha birlashtirilgan so'z) yaratilsa, bu yerda yangi mazmun ma'no eski shakliga (ya'ni oldin mavjud bo'lgan tayyor so'z olinadi) joylashtiriladi.

Ma'noni o'zgartirish yo'li bilan termin yasashning o'ziga xos tomoni shundaki, terminlashtirilayotgan obyekt (ya'ni nom berish kerak bo'lgan perdmnet yoki hodisa) xar doim nomi termin sifatida qo'llanilayotgan perdmnet yoki hodisa bilan qandaydir umumiylikka ega bo'ladi. Bu umumiylik ularning tashqi ko'rinishi yoki bajaradigan vazifasi o'rtasidagi o'hshashlik va shu kabilarda nomoyon bo'lishi mumkin. Mavjud predmetning nomini yangisiga faqatgina bu perdmnetlar tug'risidagi tushunchalar aniq, ularni o'zaro bog'laydigan umumiy jihatga ega

bo'lgan holatdagina ko'chirish mumkin xolos, aks xolda buni amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham terminlar yasashda ularning ma'nosiga, strukturaviy tuzilishiga e'tibor qaratish darkor.

Struktural – ma'noviy jihatdan tahlil etilayotgan xalqaro terminlari qisqartma holda ham uchraydi. Bizning ilmiy tadqiqotimizda ularni tahlil qilishda avvalam bor qisqartmalarni semantik tahlil qilib bo'lmashligini ta'kidlamochimiz. Shu sababli ularning to'liq ma'nolariga ega bo'lish maqsadida yoyma so'zlarning tahlil etish lozim bo'ladi.

Semantik sintaktik usulda termin yasash boshqa sohalar terminologiyasiga nisbatan ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida keng qo'llaniladi. Buning asosiy sababi ikkala soha terminlarinig o'tmish davrlarda xalq tili asosida yuzaga kelganligi va jonli so'zlashuv tili bilan mustahkam aloqada bo'lganligi bilan izohlash mumkun. Shuning uchun xalq tiliga xos bo'lgan ko'pdan ko'p metografik qo'llanishlar, ya'ni leksemalar ma'nosining ko'chirilishi xalqaro sohalaridagi terminlar tizimida nisbatan ko'p uchraydi.

Xalqaro sohalaridagi terminlarinig affiksatsiya usuli bilan yasalishi sintaktik usul bilan yasalishga qaraganda kammaksul bo'lsada, diaxronik nuqtai nazardan muhim o'rin egallaydi.

Ingliz tilida xalqaro sohada ko'plab lingvistik vositalardan, xususan, so'z yasalishidan foydalaniladi. Binobarin, ingliz tilida terminlar yasash maqsadida (prefiksatsiya, sufiksatsiya) bir nechta so'z yoki so'z birikmalaridan foydalanishi mumkun. Quyida ingliz tilida terminlarning yasalish tamoillari va uslublarini keltiramiz: Prefiksatsiya yordamida terminlar, asosan, ingliz tilida old so'z qo'shimchalari (**pre, inter, im, re, de, com, con, dis, ex**) orqali yasaladi va biror bir ish-harakatning oldindan bajarilganlidini yoki bajarilishi kerakligini bildirishi mumkun.

Pre- ushbu prefix harakatning oldindan bajarilish holatining oldindan bajarilish holatini bildiradi:

Precivilization - sivilizatsiyadan oldin

preannounce - e'lon qilinishidan avval

precalculation - hisoblashdan oldin

pre-Code - kodlashdan oldin

predeposit - bankga pul qo'yishdan oldin

deselect, delicate, desertification, deformation

exchange, export, express

ensure, entitled

discrepancy, discrete, discussion, dispute

restructure, revisit, reappear, rebuild, refinance

interact, intermix, interface

Shuningdek, ingliz tilida iqtisodiy terminlar yasashida boshqa qator prefiksatsiyaga oid morfologik omillar ham ahamiyatli hisoblanadi.

Sufiksatsiya yordamida ingliz tilida gapda ot, ravish yoki fe'l vazifasini bajaruvchi terminlar yasalishi mumkun. Masalan, -er, -or, -antkabisuffikslar orqali ma'lum amalni bajaruvchi shaxs, mexanizmni ifodalanishi mumkun;

minister, administer, superior, ambassador, physicist, philologist

Drier, cutter, computer

So'z oxiriga qo'shiluv -ion, -tion, -sion, -ment, -ure, -age, suffikslari orqali fe'llardan otga aylanuvchi ma'lum tushunchalarni anglatadigan terminlar yasalishi mumkun. Masalan:

collaboration, documentation, resolution, identification

mission, expression, admission

development, punishment, achievement

advantage, baggage, plumage

Bundan tashqari, -ism, -ty, -ity, -ness, -ence, -ance, ort qo'shimchalar yordamida sifatlardan yangi terminlar yasaladi. Masalan, shu usulda yasaluvchi so'zlarni ko'rib chiqsak:

English	Uzbek
<u>Fundamentalism</u>	Fundamentalizm(Aqidaparastlik)
<u>Terrorism</u>	Terrorizm
<u>Extremism</u>	Ekstremizm
<u>Capitalism</u>	Kapitalizm
<u>Separatism</u>	Separatizm

authority, security, quality, responsibility, humanity

perseverance, dependence, interference

alliance, attendance, acceptance

business

Yuqorida keltirilgan tarjima modellari doirasida yasalgan sifat va otlar orqali negis so'zni bildiradigan ma'nosini tushunish osonlashadi.

Misol uchun, "less" va "ful" ort qo'shimchalari bir biriga qarama qarshi ma'no kasb etishini tushunish tarjimon uchun muammo tug'dirmaydi va tarjimaning to'g'ri chiqishiga imkon beradi.

relentless

respectful, peaceful, careful

Siyosiy matnlarni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda ma'lum bir siyosiy terminlarning yasashiga ham alohida e'tibor berilsa, boshqa shu tipdagi so'zlarni ham lug'atdan izlamay turib ham anglab olish mumkin. Masalan, hozirda davlatimiz siyosatida ustuvor taraqqiyot mezonlarini ingliz tilidagi muqobillarini ko'rib chiqsak demokratlashtirish, modernizatsiya (zamonaviylashtirish), globallashtirish kabi so'zlar majhul nisbatning *-lashtirish* so'z shakli yasovchi qo'shimchasi bilan yasalgan. Mazkur qo'shimcha ingliz tilidagi *-zation* qo'shimchasiga mos keladi. Va shu tariqa, biz tarjimonlar bu so'zlar negizining ingliz tilidagi ma'nosini bilgan holda *-zation* qo'shimchasini qo'shish bilan

democratization—demokratlashtirish,

modernization—modernizatsiya,

globalization—globallashtirish so'zlarini hosil qilamiz.

Professor U.Tursunov asarlarida o'zbek tili terminologik tizimining ichki va tashqi manbalar hisobiga rivojlanishi haqida ma'lumot beradi. Har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham u yoki bu tushunchani ifodalash uchun bir qancha usullardan foydalanadilar. Ular quyidagilardan iborat:

1. Terminlarning semantik yo'l hisobiga boyishi.
2. Terminlarning morfologik usul bilan yasalishi.
3. Terminlarning sintaktik yo'l bilan yasalishi.

Qator terminologik sistemalarda semantik yo'l bilan termin yasashdan unumli foydalanib keladilar. Chunki semantik so'z yasash terminologiyada amal qilinadigan doimiy va an'anaviy yo'ldir. Terminlarni tekshirish jarayonida qator leksik qatlamlar semantik o'zgarish tufayli terminologik sistemadan joy olishi mumkinligini ko'rsatdi. Ular biror ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan o'zbek tilining odatdagi so'zlaridir. Ulardan termin sifatida foydalanadilar:

1. Ro'zg'or buyumlari nomlari: qozon, cho'mich, quti, kurak, panjara, pichoq kabilar.
2. Odam yoki hayvon a'zolarining nomlari: barmoq, tirnoq, quloq, bo'g'iz, qanot kabilar.
3. Maishiy narsa-buyum nomlari: taroq, ko'zgu, qalpoq kabilar.
4. Texnikaga oid bo'lmagan so'zlar: kalit, burqi, pona, payvandlash kabi texnik termin sifatida qo'llaniladi.

Sanab o'tilgan odatdagi so'zlarni termin deb qabul qilinar ekan, o'sha so'z ifodalaydigan tushuncha belgilari yoki ma'nolaridanbittasi termin anglatishi lozim predmetning biror muhim belgisini ifodalashi lozim. Bunday so'zlar termin bo'lishi uchun ular olimlar tomonidan ta'riflanadi va mantiqan qanday ma'no anglatishi chegaralab ko'rsatiladi. Shundan so'ng qaysi sohaning termini ekanligi qayd etiladi.

So'zning semantik taraqqiyoti tilda yangi so'zning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi va util terminologiyasini boyitishga xizmatqiladi. Morfologik usul bilan termin yasashda o'zak-negizga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi. Bunday termin yasash o'zbek tilida eng mahsuldor usuldir.

Terminlarni yasashda -gich (-qich, -qich, -kich), -soz, -ma, -lik, -sh(-ish), -lash, -cha, -chi affikslari faol ishtirok etadi: chang ajratgich, em buqlatgich; mashinasoz, asbobsoz; moslama, tirkama; temirchilik, mashinistlik; burq'ilash, payvandlash; bakcha, vagoncha; aniqlovchi, to'ldiruvchi kabilar.

O'zbek tili terminologiyasida yakka so'zli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar ancha salmoqli o'rinni egallaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi.

Ma'lumki, har bir til o'ziga xos grammatik qonuniyatlar asosida ish ko'radi. Terminlar tuzilish material, ya'ni qandayso'zlardan tashkil topganiga qarab bir necha xil bo'lishi mumkin:

Ot+ot tipidagi terminlar: samolyot borti, bug'mashina, shamol tegirmon, moy juvoz, temir qopqoq, arava gupchagi, radioning qulog'i, samolyotning parragi kabilar.

Nisbiy sifat+ot tipidagi terminlar: motorli qayiq, parrakli samolyot, magnitli diska, tirkama plug, halqasimon zichlagichkabilar.

Sifatdosh+ot tipidagi terminlar: o'ta sezgir apparat, sezgir asbob, o'zi yurar mashina, pilla tortadigan avtomat, qirquvchi asbob, yurgizuvchi aravacha kabilar.

Hozirgi o'zbek terminologiyasini yaratishda boshqa tillardan olib foydalaniladigan leksik material etimologik jihatdan ikki guruhga bo'linadi:

1. Arab va fors-tojik so'zlari. Arab va fors-tojik tillariga mansub bo'lgan so'zlar yordamida termin yasash ko'proq davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya va fan, madaniy qurilish sohalariga oid bo'lib, ular XX asrning boshlaridan uning 90-yillarigacha yaratilgan, ularning umumiy miqdori, deyarli, bir nuqtada saqlandi. XX asrning 90-yillaridan so'ng islomiy leksikaning hajmi ko'paydi. Chunonchi nur, hujayra, davlat, huquq, moliya mudofaa, sanoat, ittifoq, millat, ma'rifat, maorif, doira, markaz, nisbat, isbot, san'at kabilar arab tilidan; barg, dastgoh, ohang, rang, poydevor kabilar fors-tojik tilidan kirgan so'zlardan hosil bo'lgan terminlar sanaladi.

2. Rus tilida qo'llaniladigan so'zlar. Rus tilida o'zlashtirilgan terminlarning ba'zilar etimologik jihatdan rus tiliga boshqa tillardan kirgan baynalminal terminlardir. Masalan: parovoz, teploxod, samovar, samolyot, minor, gamma, tsilindrlar, bruslar, basketbol korzinasini so'zlari ruscha; omonim, sinonim, metafora, vergul, metonimiya, sinekdoxa so'zlari grek-lotinchada asosda shakllangan. Bu borada ijtimoiy-siyosiy terminlarni misol sifatida tahlil qilsak.

Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi har qanday o'zgarish uning terminologiyasida ham o'z izini qoldiradi. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya siyosiy tuzum, ijtimoiy va siyosiy guruhlar, partiyalar, oqimlar va ularning vakillari, hukumat yig'ilishlari va muassasalari, davlatni boshqarish va uning organlari, dunyoqarashlar, mulkiy munosabatlar, ichki va tashqi siyosat, ijtimoiy-siyosiy hujjatlar, axloq kabi normativ guruhlariga bo'linadi.

Siyosiy terminologiya asosan ro'znoma-axborot uslubiga xos. Ijtimoiy-siyosiy sohada terminologik tizimning tartiblilik va jiddiyligi o'z kuzatiladi. Ro'znoma-axborot materiallarida ko'pma'noli terminlar, termin-sinonimlar, qisqartma termin va nomlar ko'p uchraydi. Siyosiy ingliz terminologiyasidagi "legal" termini ham "qonunchilik", ham "huquqiy" ma'nolarida ishlatiladi.

Siyosiy terminlarning klassifikatsiyasi quyidagicha:

1. Partiyalar nomi:

"O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi" — The people's Democratic Party of Uzbekistan - НародноДемократическаяпартияУзбекистана

"Adolat" partiyasi – Justice Social Democratic Party -

"Milliy tiklanish" partiyasi — National Revival Democratic Party

Liberal partiya – Liberal Democratic Party - Либеральноепартия

2. Ittifoq, birlashma va tuzilma nomlari:

Shanghai hamkorlik tashkiloti – Shanghai Cooperation Organization - Шанхайскаяорганизациясотрудничества

Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti – Central Asia Cooperation Organization - ОрганизацияЦентрально- азиатскогосотрудничества

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi - Commonwealth of Independent States -
 Содружество Независимых Государств

Birlashgan Millatlar Tashkiloti –United Nations - Объединенные Нации

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti -Organization for Security
 and Cooperation in Europe -

Организация по безопасности и сотрудничеству в Европе

Yevropa Ittifoqi-European Union - Европейский Союз

Xalqaro valyuta fondi- International Monetary Fund -
 Международный валютный фонд

Jahonbanki– The Worldbank - Всемирный банк

Osiyo taraqqiyot banki –The Asian Development Bank -
 Азиатский банк развития

Islom taraqqiyot banki - The Islamic Development Bank -

Исламский банк развития

Xalqaro uyushma - International association -Международное объединение

3. Siyosiy lavozim nomlari:

President- the president - президент

Tashqi ishlar vaziri —Minister of Foreign Affairs – Министерство
 Иностранных Дел

Diplomat –Diplomat -дипломат

4. Siyosiy qo'mitalar nomlari:

Davlat departamenti - State Department -Государственный департамент

Davlat xavfsizlik qo'mitasi-Committee for State Security –Комитет
 государственной безопасности

Xavfsizlik kengashi - Security Council – Совет безопасности

5. Jamiyat uchun falokatli faoliyat, harakat nomlari:

Terrorizm - Terrorism - терроризм

Aqidaparastlik –Fundamentalism -экстремизм

Narkomaniya - Drug addiction -наркомания

Ekstremizm -Extremism -экстремизм

Korrupsiya -Corruption -Коррупция

Narkoagressiya—Aggression - Агрессия

Rasmiyishchihujjatlarningatamashunosligio'ziningstandartliligivaqolipliligib ilanajralibturadi. Uni bilmasdan turib tarjimon muvofiq hujjatlar matnining adekvat, rasmiy tarjimasiga erisha olmaydi.

Siyosiy terminologiya haqida gapiradigan bo'lsak, ingliz tilida siyosiy terminlarning yasalihi odatda chet tilidan o'zlashgan so'zlarning ma'nan tarjima qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu sababli ko'pincha tarjimonga mazkur so'zlarni yodda saqlab qolish, yoki bo'lmasa hech iloji bo'lmaganda so'zni ma'no jihatdan aniqlashga urinib ko'rib tarjima qilishning imkoni mavjud. Masalan,

“Bugun men Qonunchilik palatasi va Senatning birinchi qo'shma majlisida so'zga chiqar ekanman, asosiy maqsadim – jamiyatimizni demokratlashtirish va yangilashning konsepsiyasini, shuningdek, mamlakatimizni 2005 yil va kelgusi davrda modernizatsiya va isloh etish bo'yicha oldimizga qo'yiladigan asosiy vazifalarni qisqacha bayon etishdir”⁸⁰.

“Today I will be narrating at a joint session of the Legislative Chamber and the Senate, the first and the main purpose of the concept of democratization and renewal of society, as well as the country in 2005 and the next period of modernization and reform of the basic outline of the tasks.”

Bu jumlada ishtirok etgan “Qonunchilik palatasi” so'zi–*legislative*“qonun ochiqarish” va *chamber* – “palata” so'zlaridan (*the Legislative Chamber*); “Senat” so'zi – *Senate*“muhokamada ishtirok etish”, “maslahatchi, senator”; “demokratlashtirish” so'zi–*democratization* “xalq”, “boshqaruv” vazation – “-lashtirish” morfemalaridan; “modernizasiya” so'zi – *modernization*“zamonaviy” so'zi vazation– “-lashtirish” morfemalaridan tashkil topgan. Ko'rib turganimizdek, ingliz tilining o'ziga xosligi ham shundan iboratki, so'zlarning alohida tarkibiy qismlari ma'nosiga ko'ra butun bir so'zning tarjimasini anglab olish mumkin.

⁸⁰Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005.– B 176.

Har bir mamlakat o'zining saylov tizimiga ega bo'lib, lekin saylov kampaniyalarining texnologiyalari, maqsad va vazifalarining ko'pgina umumiy jihatlari mavjud. Saylov tematikali matnlar tarjimasida asliyat tili va tarjima tili mamlakati saylov tizimlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak.

saylov – election, voting

saylovchi –elector, voter, constituency

saylov kampaniyasi – election campaign

ovoz berish – vote for, voting, poll

ovoz – vote, suffrage, voice

O'zbek tilidagi siyosiy matnni ingliz tiliga tarjima qilishda leksik birliklarning tanlanishidagi muhim jihatlardan yana biri uning yasash shaklidir. Turk tilida kishilar orasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi *toplum* (*jamiyat*)terminsining arabcha *cemiyet* muqobili ham mavjud bo'lib, turkcha yozma va og'zaki nutqning turli vazifadosh uslublarida keng qo'llaniladi. *Cemiyet*terminsi o'zagidan arab tilida *ictimai* sifati yasalgan. *İctimai* sifatining fransuz tilidan o'zlashgan muqobili hisoblangan *sosyal* so'zi turkcha nutqda *ictimai* sifatidan ko'ra faolroq qo'llanadi⁸¹. Turkolog tadqiqotchilarimizning jamiyatshunoslik sohasidagi terminlar tadqiqoti borasidagi xulosalari bizning o'zbek tilimizdagi “jamiyat”, “ijtimoiy”, “sosial” so'zlarining etimologik kelib chiqishi xususidagi masalalarni oydinlashtiradi. Lekin yuqorida (turkiy tillarda) turli vazifadosh uslublarda turli ijtimoiy terminlarning qo'llanishi turlichadir degan fikrni xitoy tiliga tadbiq etadigan bo'lsak, xitoy tilida “jamiyat”, “jamoatchilik”, “ijtimoiy”, “sosial” singari jamiyatshunoslik terminlari birgina o'zgarmas “*social*” so'zi bilan ifodalanadi.

Masalan, jamiyatshunoslik sohasi bilan bog'liq quyidagi so'z birikmalarini ko'rib chiqsak:

Ijtimoiy va sosial guruhlar –*Social groups*

Jamoat tashkilotlari – *Social organizations*

Jamoatchilik nazorati – *Social control*

⁸¹Hamidov X., Azzamova N., Turkcha ijtimoiy-falsafiy va siyosiy terminlar tarjimasiga doir, Tarjima masalalari, ilmiy maqolalar to'plami. – T.: , 2012.– B 132

Ochiq jamiyat modellari –*Open societies* va hokazolar.

O'zbek tilida ijtimoiy-siyosiy terminlarning paydo bo'lish tarixini qadimdan boshlashlanishi haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, umumturkiy meros bo'lmish O'rxun-enisey va boshqa yodnomalarda o'z ifodasini topgan qag'an, budun ("shahar" ma'nosida), sab ("kengash" ma'nosida), bitikchi ("kotib" ma'nosida), alp ("qahramon" ma'nosida) kabi terminlar buning yaqqol misolidir.

Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar, tabiiyki, o'zining leksik qatlamlarida ham o'z ifodasini topadi. Bu fikrimizni M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi qo'yidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar misolida ham ko'rish mumkin : and, buzun, baj, bojun ("jamoat" ma'nosida), bachig' ("ahd" ma'nosida), beg, jarlig', boj ("qabila" ma'nosida), jag'i, bulg'aq ("fitna" ma'nosida), jer ("mamalak" ma'nosida) va hokazo.

O'sha davr ijtimoiy-siyosiy terminologiyasining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ularning ba'zilari hozirgi kunda ham o'zbek va qoraqalpoq hamda boshqa turkiy tillarda faol qo'llanib kelinmoqda (el-el, boy-bay, ont-ant).

H.Dadaboyevning dissertatsiya ishiga obyekt qilib olingan XI-XIV asrlar yozma yodgorliklari tilidagi qiyoslash uchun olingan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan bugungi kunda uyg'ur tilida-348, qozoq tilida-220, qirg'iz tilida-244, turk tilida-370, o'zbek tilida esa-390 tasi ishlatilar ekan.

O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tilidan va yevropa tillaridan kirgan o'zlashmalar hisobiga boyiy boshladi. O'zbek tilshunos-terminshunoslari tomonidan yaratilgan "Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati"⁸² ning alohida o'rni bor. Lug'atda 22 mingdan ortiqroq ruscha-internatsional terminlarning imkoniyat darajasidagi muqobillari berilgan. Fikrimizcha, putch, raspiska, sotrudnik, upravlenie, fundament kabi terminlarining o'zbek tilida ma'mur, dalil, insonparvarlik, qonunshunos, muhojir, fitna, tilxat, poydevor singari muqobillar bilan ifodalanishini to'g'ri deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, mazkur lug'atda deputat, diplomat, institut, kapitalist, pensiya, respublika, prezidium, syezd, strategiya kabi qator ruscha-

⁸² Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati. –Toshkent, 1976.

baynaminal terminlarning o‘zbek tilida ham aslicha qo‘llanishi masalasiga ham ijobiy. Lug‘atning muhim fazilatlaridan yana biri shundaki, unda ma’lum bir rucha-baynaminal termindan keyin uning o‘zbekcha muqobili va shu terminning ma’nosini ochib berishga xizmat qiluvchi birikma terminlar ham berib ketilgan. Bunday holni sifat tarzidagi terminelementlar tarjimasida yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan: безрпизорныйребенок-boqimsiz bola, вредное наследие старого - eskilikning zararli qoldiqlari.

Shuningdek, mazkur lug‘atda ijtimoiy-siyosiy tushinchalarni ifodalashda o‘zbek tilining qator so‘z yasovchi vositalaridan unumli foydalanishga harakat qilingan. Xususan, aslida fors-tojikcha, lekin o‘zbek tilining “mulki”ga aylanib qolgan –dor affiksidan lug‘atda unumli foydalanilgan. Masalan: udarnik-zarbdor, aksioner-aksiador, diktator-hukmdor, doverenniy-vakolatdor kabilar shular jumlasidandir. Qayd etilgan fazilatlar o‘zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy terminlarning barqarorlashishiga xizmat qilganligini ta’kidlash joiz, albatta. Shu bilan birga, mazkur lug‘atda u yoki bu ijtimoiy-siyosiy tushunchalar xilma-xil ma’nodoshlar bilan ifodalanagan. Bu terminologiyadagi asosiy printsiplardan biri, ya’ni sinonimiyaga urg‘u berish masalasi oqlanmayotganligini e’tiborga olsak, kvalifikatsiya-malaka // kvalifikatsiya, korrespondentsiya-yozishma // maqola // xabar // ma’lumot, oppozitsiya - oppozitsiya // qarshilik (hozir: muxolifiyat), polojenie-qonun // qoida; nizom // nizomnoma shakllarida tarjima qilinganligini to‘g‘ri, deb bo‘lmaydi.

Ijtimoiy iqtisodiy terminologiyasi borasidagi dastlabki ish J.Dosmuxamedovning “Общая характеристика терминовполит-экономики основные способы их образования в современном збекском языке” (1974) va qozoq tilshunosi M.R Nasirovaning “Социально-экономическая терминология в современном казакском языке”(1969) nomzodlik ishlaridir. H.Dadaboyev “XI-XIV asrlar turkiy tillar yozma yodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial iqtisodiy terminologiya” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. O‘zbek tilidagi, binobarin, turkiy tillardagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiyani o‘rganishga bag‘ishlangan bu jiddiy io‘shda turkiy tillaning shakllanishida o‘zining

muhim rolini o'ynagan, ko'rsatilgan sohalar terminlarining paydo bo'lish va tilda qo'llanish muammolari atroflicha o'rganilgan.

Yuqorida aytilgan xulosalar ilmiy termning quyidagi tarifni keltiramiz: ilmiy termin bu – o'zining ma'no (semantik) tuzilishida terminlashtirilayotgan obyektning boshqalar bilan o'zaro aloqasini yetarli aniqlik bilan aks ettirgan holda amaldagi terminologiya tizimida ma'lum ilmiy darajada tasniflovchi so'z, turg'un so'z birikma yoki qisqartmadir.

3.2 Xalqaro munosabatlarni bildiruvchi terminlarning kognitiv va koseptual tahlili

Bugungi kunga kelib, til va madaniyat uyg'unligi muammosi bir qancha olimlar, tilshunozlar va tadqiqotchilar diqqat – e'tiborin qozonib ulgirdi. Ushbu mavzuga doir turli xil yondoshuvlar tilshunoslikning lingvomadaniyat shunoslik, psixolingvistika, etnolingvistika, satsiolingvistika, tarix, adabiyotshunoslik kabi sohalarida o'rganib kelinmoqda. Olimlar tomonida olib borilayotga tadqiqot ishlarida til va madaniyat munosabatlari masalalari yoritilib, ularning bir biriga bog'liq doimiy birliklar yoki bir birini to'ldiruvchi muhim komponentlar ekanligi to'laqonli isbotlanib kelmoqda.

Tilda madaniy qadriyatlar o'z ifodasini topadi va ularni xalqqa yetkazib berishda til asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Til dunyoning milliy manzarasini, xalqning o'ziga xosligi va milliy madaniyatini o'zida mujassam etadi. Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabat ayniqsa, chet tili o'qitish jarayonida yaqqol nomoyon bo'ladi. O'z ana tilini o'rganish bilan bir qatorda inson o'z milliy madaniyatini asta sekin singdirib boradi, an'ana va odatlarini idrok etadi. Lekin, xorijiy tilni mukammal o'rganishda esa u boshqa xalqning, boshqa millatning dunyoviy manzarasini anglab yetadi.

Orgatishning pirovard maqsadlaridan biri har bir til o'rganuvchida kommunikative til ko'nikmalari va ularning ijtimoiy madaniy dunyoqarashini boyitish, hamda madaniyat haqidagi muloqatlarda bayon qilinadigan fikr mulohazalarning saviyasini oshirishdan iborat.

Madaniyatning til bilan o'zaro bog'liqligi murakkab psixolingvistik jarayonlardan biri bo'lgan – tarjima muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjima ahborotning asl ma'nosini ifodalashda lingvistik birliklarni mosini topish va ularning samarali qo'llanilishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. U o'z madaniyatimizning xorijiy til madaniyati til madaniyati bilan ozaro munosabati va o'ziga hos tafovutlarini hamda dunyoni anglash bilan bog'liq muayyan kognitive jarayonlarni hamda dunyoni anglash bilan bog'liq muayyan kognitiv jarayonlarni ustun qo'yadi.

Til va madaniyat uyg'unlashuvida, shuningdek, tarjima jarayonida inson beixtiyor, tilning muhumleksik tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biri bo'lgan xalqaro aloqalardagi siyosiy terminlarga duch keladi. Har bir xalq, har bir etnik guruh har qaysi davrda o'z onomastik birliklariga ya'ni siyosiy terminlar ro'yxatiga ega bo'ladi. Xalqaro aloqalardagi siyosiy terminlar muayyan madaniyatning muhim konseptlarini nomoyot etishda muhim ahamiyatga ega. Vaholanki, ko'p xolatlarda atoqli otlarning og'zaki nutqda shakillanish hususiyatlari, ularni xorijiy va ona tilida yetkazib berish tadqiqotchilar, til o'rganuvchilar va tarjimonlarning diqqat markazidan chetga chiqib qoladi. Bundan tashqari, ularga doir mahsus adabiyotlar xususan, lug'atlar, qo'llanmalar, darsliklarning yetishmasligi mavzuning dolzarblik vazifasini oshiradi.

Yuqoridagi mavzuga muvofiq xalqaro aloqalardagi siyosiy terminlarning atroflicha til madaniyatidagi ahamiyatini birma bir tahlil qilish jarayonini batafsilroq jadval ososida bayon qilamiz. Masalan: ingliz, rus va o'zbek tillaridagi bir ma'noli terminni misol qilib olsak.

“ambassador”, “посол”, “elchi” - bir davlatning boshqa bir davlatdagi elchixonasiga rahbarlik qiluvchi diplomatik vakil. Tarixiy manbalarda bir davlat hukumati tomonidan ikkinchi davlat hukumatiga diplomatik vazifa bilan yuboriladigan doimiy yoki muvaqqat vakil. Etimologik tariflar sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkun.

Embassador- termini o'rta asrlarda ingliz-fransuz tilidagi ambassador so'zidan yasalgan bo'lib, asosi lotin tilidan “Ambaxus-Ambactus” olingan va bu

soʻz xizmatkor elchi maʼnosini anglatadi. XIV asrda bu termin keng qoʻllanila boshlagan.[Entepretive dictionary]

Посол- termining asosi Belarus tilidagi “*посылаць*” soʻzidan olingan boʻlib joʻnatish yuborish maʼnosini anglatadi.[Vikipedia]

Elchi- atamasi ilk bor Uyuq daryosi vodiysidan topilgan qadimiy turkiy Enasoy runik bitikida qayd etilgan undan avval yalavoch, yalafar, rasul atamaları bilan ham ifodalangan. "Yalavoch" atamasi birinchi marta Oltinkoʻl yaqinidan topilgan Enasoy yodnomasida koʻzga tashlanadi. Mazkur qadimiy turkiy bitigda 711 yilning avgust-sentabrda Tibetga Turk xoqonligidan kelgan diplomatik vakilning tashrifi xususida gap boradi. [Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi]

Lingvomadiniy jihatdan esa elchi soʻzi kontekstda nafaqat oʻz manosida balki koʻchma manoda aynan metafora ham boʻlib qoʻllanilishi mumkun.

Masalan elchi soʻzi ayrim badiiy asarlarda metafra boʻlib kelganida *sovchi*, *oʻrtakash*, *paygʻambar* yaʼni *rasul* (Ollohning yerga birinchi joʻnatgan elchisi “Muhammad Salloallohu Alayhi Vassalam”) soʻzlari qoʻllanilganini koʻrish mumkun.

Yuqorida koʻrsatilgan tadqiqotlardan shuni xulosa qilish mumkunki, nafaqat tilda qoʻllaniladigan oddiy soʻzlar baki terminlar yaʼni xalqaro aloqalardagi atamalar ham til madaniyatida taʼsir etibgina qolmay, alohida oʻzgacha oʻrin ham egallar ekan.

Xalq oʻzaki ijodidan ham elchi soʻzi bilan bogʻliq maqollarga etibor bersak:

Elchiga oʻlim yuq, sovchiga oʻlim yuq.

“minister” – davlat siyosatchisi boʻlib milliy va mintaqaviy hukumat boshqaruviga ega boʻlgan shaxsdir, vazifasi boshqa davlat ministrleri bilan siyosiy savollarning yechimida qaror hal qilishda asosiy qatnashchi. Baʼzi ishlarda vazirlari boshqalardan koʻra koʻproq katta boʻladi, va, odatda ular hukumat mahkamasining aʼzolari hisoblanadi. Baʼzi mamlakatlarda hukumat rahbari, "Bosh Vazir" tayinlanadi. Diniy ishlarga masul boʻldan ministrler yaʼni Isroil vaziri diniy javobgarlik uchun bir kabi ruhoniyy boʻlishi mumkin, lekin nomi "vaziri (nasroniyylik)" diniy holatiga yoki nasroniyy vazirligi faoliyati bilan adashtirmaslik

kerak. “**minister**” termini oʻrta asrlarda qadimgi fransuz tilidagi *minister*, kelib chiqishi lotin tilidan boʻlib xizmatkor, qatnashchi maʼnolarini anglatib minus yaʼni *kam* manosidan kelib chiqqan.⁸³

Министр – termini hukumat boshqaruv stukturasining asosiy raxbari hisoblanadi. Ingliz tilidan oʻzlashtirilgan boʻlib, boshqa mamlakatlarda misol uchun AQSH, Buyuk Britaniya, Meksikada devonxona aʼzosi deyiladi, Buyuk Britaniyada esa alohida vazirlarni davlat kotibi dab ham atashadi.

Vazir (arab. — yuk koʻtaruvchi) — oʻrta asrlarda Yaqin va Oʻrta Sharq davlatlarida, shu jumladan Oʻrta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devon) boshligʻi. V. lar vaziri aʼzam rahbarligida davlatni idora etish vazifalari bilan shugʻullangan. V. lar podshoh, xon viloyat hokimligiga tayinlagan shahzoda va xonzodalarning yordamchilari hisoblangan. Arab xalifaligida V. lavozimini 1-bulib xalifa al-Mansur (754—775) joriy etgan. Somoniylar davrida 10 devon boʻlib, ularni xojayi buzurg, sohib barid, mushrif, vakil, muxtasib va b. vazirlar boshqargan. Amir Temur va uning vorislari zamonida saltanatning markaziy maʼmuriyatini bosh vazir — devonbegi boshliq 7 V. dan iborat arkoni davlat boshkargan. Ular: 1) mamlakat va raʼiyat ishlari, 2) harbiy ishlar, 3) ti-jorat, 4) moliya ishlari boʻyicha V. lar sanalib, yana 3 nafar maxsus V. chegara viloyatlari va tobe mamlakatlardagi ishlarni nazorat qilib turgan. Mazkur 7 V. devonbegiga boʻysungan va ular bilan bamaslahat davlatning muhim moliyaviy ishlarini olib borishgan. Xiva xonligida V. yuqori mansabdor shaxs sanalib, vazifasi soliq toʻplash, qoʻshni xonliklar bilan aloqa qilish, amaldorlarni tayinlash va h. k. dan iborat boʻlgan.

Lingvomadiniy jihatdan esa rus tilidagi **министр** soʻzi aynan rus tilida asosan ogʻzaki tilda nafaqat oʻz terminologik maydonda balki koʻchma manoda ham kelishi holatini kuzatishimiz mumkun.

Misol uchun : *Когда человек становится богатым его считают как он стал министром.*

⁸³ The word Minister Definition, dictionary.com dictionaries

Yuqoridagi misolda **министр** so'zi – rus tilidagi o'g'zaki tilda dimog'i baland, kattatarosh, pisand bilmidigan xarakterdagi insonlarni tasvirlashda qo'llaniladi.

“society”– termini lotin “societas” so'zidan ya'ni uning ot shakli bo'lmish *socius* (ittifoqchi , o'rtoq do'stlik)dan kelib chiqqan, partiyala o'rtasidagi ichki tasir va munosabatlardagi do'stona aloqalarni ifodalashda qo'llaniladi.

Jamiyat- *Cemiyet* termini o'zagidan arab tilida *ictimai* sifati yasalgan. *İctimai* sifatining fransuz tilidan o'zlashgan muqobili hisoblangan *sosyal* so'zi turkcha nutqda *ictimai* sifatidan ko'ra faolroq qo'llanadi⁸⁴.

Middle French societe < Latin societās, equivalent to soci(us) partner, comrade + -etās, variant of -itās- -ity

Politics - grekcha : πολιτικός politikos so'zidan olingan bo'lib " uchun, ning, ya'ni fuqorolarga aloqador" deya tariflanadi. Qadimgi manbalarda berilishicha 15 asrlarda "Polettiques" deb berilgan bo'sa, hozirgi zamonaviy ingliz tilida "politics" so'zi qo'llanilmoqada. Vazifasi-bir guruhning barcha a'zolari murojati orqali yagona qaror qabul qilish jarayonidir. Bundan tashqari, bir shaxsning xatti harakati yana bir kishining tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishini o'z ichiga oladi.

Πολίτικα (grekchadan πολιτική olingan bo'lib « hukumat harakati») — tushunish, o'zida davlat organlari hukumati va hukumat boshqaruvi harakatni ifodalalaydi, bundan tashqari jamiyat hayotining voqea hodisalari, funfsiyalangan hukumat bilan bog'liq. Siyosiy sohaning ilmiy izlanishlari siyosatshunozlik doirasida olib boriladi.

Siyosat - (arab. سياسة (siyasa) - ot tarbiyalash, ot boqish) — davlatni boshqarish san'ati. Siyosat biror guruh, jamiyatni boshqarish jarayonidir. Ushbu jarayonda tegishli guruh vakillari ham qatnashishadi. Bu atama ostida ko'pincha hukumat faoliyati tushuniladi. siyosat turli ijtimoiy-siyosiy institutlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqa va guruhlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq. Uning mohiyatini davlat hokimiyati shakllari, uni amalga oshirish va boshqarish tashkil etadi.

⁸⁴Hamidov X., Azzamova N., Turkcha ijtimoiy-falsafiy va siyosiy terminlar tarjimasiga doir, Tarjima masalalari, ilmiy maqolalar to'plami. – T.: , 2012.– B 132

Queen – qadimiy ingliz tilida *cwen* "queen, davlatning ayollar qoidalari, ayol, xotin," (grek tilidagi manbalarda *gyné* "ayol, xotin;" Sanskrit tilida *janis* "ayol," *gná* "ollohning ayoli;" qadimgi Slaviyan cherkovlarida *zēna*, Gothic tilda *qīno* "ayol").

Царь (*цѣсарь, цѣсарь*, lotin tilidagi *caesar*, grekchada *καῖσαρ*) — slovia manarxi bo'lib, odatda imperator bilan teng ma'noni anglatadi. X asrning buyuk knyazi Симеон I birinchi qirollik «царь» nomi berilgan. Rus tili tarixida bu so'z: «sher— hayvonlar quroli». **Царица** – rodde o'zgarishi (ayollarga)

Qirol, qirolicha – so'zlari o'zagi tukr tilining “kral” so'zidan o'zlashtirilgan. Albatta qadimda bu so'zlarga o'zbek tilida muxtojlik sezilmagan chunki, bu so'zlaning o'rnida “shox” va “malika” kabi o'sha davrning maxsus so'zlari ishlatilgan.

Lingvomadiniy jihatdan esa queen so'zi kontekstda nafaqat o'z manosida balki ko'chma manoda aynan metafora ham bo'lib qo'llanilishi mumkun.

Masalan: *You are my queen, honey!*

Bundan shunday xulosaga kelishimiz munkunki **qirolicha** ya'ni **queen** so'zi oddiy xalq, qirollik oilasiga mansub bo'lmaga insonlar orasida ham keng qo'llaniladi. Berilgan jumlada queen so'zi ayolga nisbatan uning oiladagi o'zni tilda chiroyli va yuqori daraja tariflash uchun foydalaniladi.

Chamber – lotin tilidan olingan xona ma'nosini beradi. Tarixda bu so'z so'roq qilish kamerasi, yoki "qrong'i xona," shundan beri qora quti ma'nasini beradi. Siyosiy sohada esa maxsus tarmin bo'lib qabulxona yoki maxsus qarorgohning tinglovchilar xonasi.

Палата - 1) Bir qancha qonun chiqaruvchi institutlar nomi. Ko'plab parlamentlar odatda ikki guruhga bo'linadi: yuqori va quyi. Yuqori va pastki. 2) muayyan davlat yoki jamoat muassasalari nomi.

Palata – ushbu termin o'zbek tiliga rus tilidan kirib kelgan bo'lib siyosiy sohada rus tilida berilgani kabi bixildir.

Lekin *plata* so'zini insonlar muloqatida ko'p uchraydigan so'z hisoblani, o'zbek tilida shifoxaning bemorlar uchun berilgan omonim sifatida kelish

xonalariga og'zaki nutqda palata so'zini ishlatamiz. Bu esa *chamber* so'ziga berilgan ta'rifga to'g'ri keladi.

Soiyosiy terminlarning tahlilida kognitiv yondashuvlar haqida qisqacha axborotlar.

Ilm zamonaviy jahon boshqaruvida fan va boshqaruv amaliyotida iqtisodiy samaradorligini asosiy manbai sifatida inson qaratildi. Har qanday ilm fanning tarixiy rivojlanishiva bundan boshqarish kabi uning uzluksiz tarixiy rivojlanishi, kontseptual paradigmalari qadamma qadam almashtirish orqali amalga oshirildi. Universal vositalar ularning ifodasi terminologiyadir.

Terminologiya tadqiqotida milliy tildagi manbani konseptual paradigmada ifodalash, diahronik rejada olib borish, modelshtirish imkoniyatining rivojlanish ehtimolini, miqdoriy va tarkibiy rasmiy ifodasidagi o'zgarishlarnitopish lozim.Milliy terminologiya alohida e'tibor rivojlanayotgan yo'nalishlardan diahronik o'rganishga qaratildi, ayni paytda ularning kelib chiqish vaqtini o'rnatish uchun atamashunoslikni, ularning rivojlanish xususiyatlari va ularning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashda yordam beradi. Shu asnoda, ifoda vositasi sifatida terminologik so'z aniqlashda, maxsus axborot uzatishva saqlash, shuningdek mexanizmlarini o'rganish, tushunchalar va tegishli kategoriyalari ifodalovchi terminlar shakllantirishda qiziqishlar yuzaga keldi. Rossiyaning bozor iqtisodiyoti rivojlanish jarayoni kabi yo'nalishlarni xizmat terminologiyasi bilan boshqarish texnologiyalari ingliz tilini o'rganish ayniqsa, diqqatga sazovordir. Ingliz tili terminologiyasi boshqarish tufayli AQSh boshqaruv dasturlaritarixiy rivojlanish xususiyatlarishakllana boshladi. Shakllantirish va faoliyat muammolarini tahlil qilish uchun nazariy asos bilim fragmanti sifatida ingliz tilidagi atamalar boshqarish qoidalariga bilim tilshunoslik va printsiplari ilmiy faoliyatibo'lib xizmat qiladi va bir til maydonida inson bilim faoliyati turlaridan kognitiv ya'ni tafakkur ongi sifatida qaraladi. Konnotativ belgi terminning semantik strukturasi bevosita va bilvosita qatnashadi. Terminlarning nominativ qismi va (yoki) uning ta'rifida o'zining mahalliy nuqtai nazarida ifodalangan bolishi mumkun. Termin va uning ta'ri fi shunday bir o'ziga yetarli strukturaviy


ma'noga ega bo'lib, unga o'zgarmas element fanda anashu aniqlik darajasini belgilash inkonini beradi. Terminlarning semantik tahlilida, konnotativ belgi o'zida pragmatik axborotni ifodalash uchun predmet nomini belgib olishi, sintaktik kombinatsiyalar, shu bilan birga metaforik, va so'zning xosilasini ifoda etadi.

Pragmatik yondashuvga ko'ra terminlar eng muhim konseptlarni aks ettirgan holda belgilash mumkun. Birinchi navbatda terminlar *human* terminoelementida: human interaction, human needs, human relations, human report etc. *Human* so'zi (lotin tilidan "*humanus*" so'zidan olingan) ingliz tiliga semantik va rasmiy assimilyatsiyasi natijasida kirib kelib «insoniy, insoniyli, insonsevar, insonparvar» lik omillarini anglatadi. XX asr 20- yillaridailm fan rivojida E. Meyo asosiy tushunchani ifodalash uchun boshqaruv konseptida "human relations" human so'zi terminoelement bo'lib, belgini ifodalaydi. Kognitiv lingvistika holtida human (insonparvar) konseptini aks ettiradi, protatip katigoriya hosil bo'lish maydonida – barcha fikran-qalban belgini, munosabat asnosida yotgan va aniq insonning konkret harakati, boshqarish sistemasini o'z ichiga oladi.

Terminoelementlarning maxsuldorligi shuday hodisaki self-, (aniq yo'nalgan harakat subyektning shaxsiy Meni), inson o'zining aqli qurilishi, o'ziga shaxs va ishchi kabi ishonch maqsadlarini oldinga suradi. «Inson resurslari boshqaruvi » (Human resource management), konseptlarda asoslananib « Insoniylik munosabatlar maktabi » o'zining falsafiy prinsiplari asosida e'lon qilindi– asosy qiymat (value), harakatini omadli tashkillashtirish taminlamoq, inson harakati, uning qiymati va kutilishi (employee values and expectations). Bu kani qiymatlar siyosiy tashkilotlarni qo'llab quvvatlaydi va tan oladi, sharti bilan ish joyidagi ishchi harakati davomida (efforts), sodiqligi (commitment), to'g'rilik(loyalty), hissa (contribution), ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdir.

Lingvomadaniy sohada siyosat so'zini konseptual tushuncha deb olganimizda albatta siyosiy maydondagi terminlar va so'z birikmalar tafakkurga jam bo'ladi. Xususan har bir davlatning siyosati turlicha bo'lib alohida qismlarda shakillanadi. Misol uchun ijtimoiy siyosat va tashqi siyosat. Ijtimoiy siyosatda shu

davlatga tegishli siyosiy terminlar umumiste'molda bo'lsa, tashqi siyosatda esa aksincha barcha davrlarlarga tegishli bo'lgan umumiy terminlar qo'llaniladi.



Berilgan lingvokulturologik tahlilda kognitiv mapping uslubida politika (siyosat) so'zi semantik maydonida berilgan yuqoridagi terminlarni o'z ichiga olgan holatini ko'rishimiz mumkun.

Xulosa qilib, yuqoridagi tahlillardan so'ng shunday umumiy fikrlar kelindi, til va madaniyat uyg'unlashuvida, xususan, tarjima jarayonida inson albatta, terminlarga duch keladi. Til birliklari orasida terminlar – so'z va so'z birikmalar obyektlarini nomlash va ularni bir biridan ajratib turish kabi vazifalari hamda induvidualizatsiya va identifikatsiya tamoillari bilan alohida ahamiyatga ega.

Tillar va madaniyatlararo munosabatlarda va xattoki, xalqlar orasidagi ozaro aloqalarda terminlarning muammosi anchadan beri tadqiq qilishnishiga qaramasdan o'z dolzarbligini saqlab qolgan. Terminlarning murakkabligi va kamchiliklari ham subyektiv (tarjimonning tilni mukammal bilishi va

umummadaniy birliklarga ega bo'lishi) ham obyektiv (terminlarning tilde va og'zaki nutqda shakillanish xususiyatlari) sabablar bilan bog'liq.

Terminlarning bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar yechimini topish tarjimondan yuksak mahorat kasb etadi. Bu o'z navbatida, tillar va madaniyatlararo samarali va muvaffaqiyat munosabatlarini ta'minlab berishga xizmat qiladi.

O'zbek tilida mavjud siyosiy terminlarning o'tmishdan, turli tarixiy voqealar guvohi sifatida bizgacha yetib kelgan. Terminlar ham albatt xalqning turmush tarsi, tarixi, urf odatlari va faqatgina o'ziga xos jihatlarini o'zida aks ettiradi. Madaniyat kontekstda ifodalanishida psixolingvistik va sotsiolingvistik jarayonlardan biri bo'lgan – tarjima qilish masalalari va usullari o'rganiladi.

UMUMIY XULOSA

Ishning yakuniy xulosasiga to'xtaladigan bo'lsak, yuqorida keltirib o'tilgan terminologiya borasida ilmiy ish olib borgan olimlarimizning fikrlariga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, olimlar bu tushunchalar o'rtasidagi prinsipal farqini terminlar majmuini tartibga solingan yoki solinmagan, deya belgilashmoqda. Boshqacha qilib aytganda, terminologiyani terminologik tizimga aylanishida uning tartibga solinganlik omili muhim ahamiyat kasb etadi. Terminologiyani tartibga solinishi nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyati katta bo'lgan masaladir. Terminologiyani tartibga solishning samaradorligi terminlar bevosita qo'llanadigan quyidagi holatlarda yaqqol ko'rinadi: kasbiy ta'limni to'g'ri tashkil etishda, ishlab chiqarish amaliyotida bo'ladigan og'zaki muomalada, ilmiy va ishlab chiqarish jarayonlaridagi o'zaro yozishmalarda, matbaachilikda, chet el adabiyotlarini tarjima qilishda. Til faqat o'z termin elementlar hisobiga terminologiyasini qura olmaydi. Til qurilish jarayoni shuni ko'rsatadiki, dunyoda sof tilning o'zi umuman mavjud emas. Har doim boshqa tillardan termin o'zlashtirish jarayoni sodir bo'lib turadi, bu jarayondan chekinish mumkun emas. Ammo ehtiyoj sezilmagan holatlarda ham xorijiy terminlarni suniy ravishda tilga olib kirish har doim o'zini oqlayvermaydi, Bunday holatlarda ko'proq o'z til imkoniyatlaridan foydalanish va bunda termin ifodalash lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan termin o'rtasidagi munosiblikni saqlashga e'tiborni qaratish lozim. Ko'p hollarda ba'zi tushunchalarni ifodalovchi terminlar iste'molda mavjud bo'lmaydi, natijada bunday tushunchalar o'ta muhim va ahmiyatli bo'lishiga qaramasdan. Keng tarqalish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilgan kamchiliklarning ayrimlari o'zbek tili terminologiyasida ham mavjuddir. Xususan, tilimizda ayni bir termini birdan ortiq tushuncha uchun qo'llash, bir tushunchaning turli terminlar bilan atash, variantlilikning mavjudligi, rus tili va u orqali Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan terminlarning tushuncha mohiyati to'g'ri ask ettira olmasligi, bir tushunchani ifodalovchi terminlarning noqulayligi sabab bo'luvchi ko'p komponentlilik holatining mavjudligi, xorijiy gterminlarning keragidan darajada qollanilishi, ayim terminlarning yozilishidagi har xillik kabi

terminologiyaning yetakchi tendensiyasiga zid keluvchi holatlar ko'plab uchraydi. O'zbek terminologiyasidagi bunday salbiy holatlarning mavjudligi sohaviyterminologiyalarni tartibga solish borasida hali ko'p ishlar qilinishi lozimligidan dalolat beradi.

Lingvomadaniyatshunoslikda, konsept bir-biriga bog'liq, bir butun qoidaga ega g'oyalar yig'indisi. Konsept tushunchaning obrazda, mazmun va belgida aks etuvchi tarkibiy shakllarida mujassamlashgan mohiyatidir. Konsept matnda bir butun ko'rinishda namoyon bo'lib, matnda aks etgan mazmunni ochib berishga xizmat qiladi. Konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o'rinni egallagan bo'laklari mavhumlikka ega bo'lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Lingvokulturologiyada bu atama madaniy mental til ko'rinishi, «inson ongidagi madaniyatning quyulib qolgan qismi; madaniyat, insonning mental borlig'iga kiradigan, so'z bilan ifodalanadigan tushuncha, tasavvur, bilimlar to'plami» sifatida qaraladi. konsept ko'rinmas tafakkur kategoriyasi va bu uning izohlanishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Shu sababli konsept tarkibining tizimiy xarakterga ega ekanligini e'tirof etish ma'quldir. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo'ladi.

Biroq insoniyat tili, shuningdek, alohida tillarga xos jihat va qonuniyatlar yuzasidan olib borilgan kuzatish va talqinlarga qaramay, hanuzgacha birorta til va uning o'ziga xos tabiati, nutqiy imkoniyatlari, til va tafakkur, til va madaniyat, til va jamiyat kabi hodisalarning o'zaro munosabatlari to'laligicha ochib berilmaganligi, til bilan bog'liq barcha masalalar o'z yechimini to'la topmaganligi ma'lum. Bunga esa tilning murakkab hodisa ekanligi, hatto tilning amaliy shakli sanaladigan nutqning ham murakkab tabiatga egaligini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Ko'plab olimlarning tadqiqotlarida til va madaniyat o'zaro munosabati tomoman isbotlangan hamda eng muhumi, til va madaniyat deyarli bitta birlikni

aks ettirishi tavsiflab berilgan. Tilda madaniy qadriyatlar o'z ifodasini topadi. Bundan tashqari, til madaniyati va dunyoning milliy manzarasi mujassamlashadi

Maskur ilmiy tadqiqot ishida til va madaniyat o'rtasida o'zaro munosabat ya'ni ularning bir birisiz mavjud bo'la olmaslikshartlari o'z ifodasini topdi. Ularning har ikkisinining bir-birini to'ldirib turuvchi funksiyasi tilshunoslikning lingvomadaniyatshunoslik sohasi doirasida tadqiq qilinib, yana bir bor ilmiy isbotlandi. Madaniyatning tilda aks etishining asoslab berilishi, tadqiqot ishining mazmun-mohiyatini ochib berish uchun xizmat qiladi.

Taqdim etilayotgan ilmiy tadqiqot ishida tilshunoslikning eng murakkab va turli tuman dolzarb muammolarga boy sohalaridan biri lingvomadaniyatshunoslik va uning siyosiy va ijtimoiy terminlar bilan bog'liq masalalari tadqiq qilindi. Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlik shuningdek, ularning har ikkisini bog'lab turuvchi atoqli otlarni tadqiq qilish jarayonida vujudga keladigan qiyinchiliklar hozirgi kungacha tilshunos olimlarning tinimsiz izlanishlariga sabab bo'lmoqda.

Xalqaro aloqalarni bildiruvchi siyosiy va ijtimoiy terminlarning har qanday til jumladan, jumladan, ingliz, rus va o'zbek tillari leksikasida muhim ahamiyat kasb etadi, hamda ular til leksikasining anchagina qismini tashkil etadi.

Til va madaniyat uyg'unlashuvida, xususan, tarjima jarayonida inson albatta, terminlarga duch keladi. Til birliklari orasida terminlar – so'z va so'z birikmalar obyektlarini nomlash va ularni bir biridan ajratib turish kabi vazifalari hamda induvidualizatsiya va identifikatsiya tamoillari bilan alohida ahamiyatga ega.

Tillar va madaniyatlararo munosabatlarda va xattoki, xalqlar orasidagi ozaro aloqalarda terminlarning muammosi anchadan beri tadqiq qilishnishiga qaramasdan o'z dolzarbligini saqlab qolgan. Terminlarning murakkabligi va kamchiliklari ham subyektiv (tarjimonning tilni mukammal bilishi va umummadaniy birliklarga ega bo'lishi) ham obyektiv (terminlarning tilde va og'zaki nutqda shakillanish xususiyatlari) sabablar bilan bog'liq.

Terminlarning bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar yechimini topish tarjimondan yuksak mahorat kasb etadi. Bu o'z

navbatida, tillar va madaniyatlararo samarali va muvaffaqiyat munosabatlarini ta'minlab berishga xizmat qiladi.

O'zbek tilida mavjud siyosiy terminlarning o'tmishdan, turli tarixiy voqealar guvohi sifatida bizgacha yetib kelgan. Terminlar ham albatt xalqning turmush tarsi, tarixi, urf odatlari va faqatgina o'ziga xos jihatlarini o'zida aks ettiradi. Madaniyat kontekstda ifodalanishida psixolingvistik va sotsiolingvistik jarayonlardan biri bo'lgan – tarjima qilish masalalari va usullari o'rganiladi.

Magistrlik dissertatsiyasi nazariy va amaliy qismlardan iborat bo'lib, uning nazariy qismida tilshunos olimlarning, lingvomadaniyatshunoslarning fikrlariga tayanildi. Dessertatsiyaning amaliy qismida ilmiy nazariyalarga asoslangan holda siyosiy terminlarga misollar keltirilib mustahkamlandi. Ingliz, rus va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan terminlarning lingvomadaniy va qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra terminlarning lingvomadaniy hususiyatlari ya'ni ular nafaqat belgilangan maydonda balki kontekstda tashqi ta'sir orqali kochirma manoda ham qo'llanilishi mumkun degan xulosaga kelindi. Yuqorida bayon etilgan xulosalar ilmiy izlanishlarning yaqqol natijasidir. Magistrlik dissertatsiyasi ana shu ilmiy izlanishlarga asoslangan holda, "O'zbek tiling izohli lug'ati" hamda "Ingliz tili va madaniyati Longmen lug'ati"dagi ba'zi terminlar qiyosiy lingvomadaniy hususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot ishining xulosasiga tahlil natijalari ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, ingliz rus va o'zbek tishunosligida hamda madaniyatshunosligida siyosiy terminlarning lingvomadaniy axborot tashuvchi sifatida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B.266.
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. – B.8.
3. Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B. 19.
4. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005.– B 176.
5. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 2001. – С.132.
6. Mengliyev B., Sayfullayeva R. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo'lida // “Ma'rifat” gazetasi, 2007 yil 21 may; Safarov SH. Pragmalingvistika. – T.:Fan, 2008; Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. –T. Fan, 2007; Toirova G., Safarov SH. Nutqni sotsiopragmatik o'rganish asoslari. –Jizzax:NS, 2006.
7. Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология.–Т., . 2009. С. 5.
8. Nurmonov A. Hozirgi O'zbek adabiy tili. –T.: Sharq, 2002. –B. 62-63.
9. Danilenko V.P. Русская терминология: Опытлингвистического описания. - М.:Наука, 1977. -S.157.
10. Abdurahmonov G', Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti.-T.: O'zbekiston, 2002.-B. 84-85.
11. В.В. Виноградов, «Вопросы языкознания»1961, стр.3-10
12. Воджно Л.И. Научнотехническая терминология из объектов изучение закономерностей развитие языка // Филологическая наука. 1971. – с. 103.
13. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. М., 1961.– с. 29.
14. Калинин А.В. Лексика русского языка:, 1971. – с. 141.

15. Коготкова Т.С. К вопросу о производственно-профессиональной лексикк говора и соотношении ее с терминологической лексикой литературного языка // Диалектная лексика 1969. – Лелинград: Наука, 1971. – с. 4.
16. Шулюкина Т. С. К вопросу перевода экономических терминов (на материале английского и русского языков).- М., 2011.
17. Лесникова Ж.В. Способы перевода терминов с английского языка.-М., 2010
18. Кинчина Е. В. Когнитивные аспекты перевода экономических терминов.-К., 1999.
19. Каплина А.С. Межкультурные особенности экономического текста и трудности его перевода.-М., 2012.
20. Стрелецкая И.В. Языковые особенности перевода экономических текстов с английского языка на русский. - М., 2012.
21. Довбыш О.В. Английская финансовая терминология и проблемы ее перевода на русский язык.-М., 2003.
22. Потебня А. А. Из записок по русской грамматике 1958. – с.19
23. Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. 1986. -с.163.
24. Баскаков Н.А. Современное состояние терминологии в языках народов СССР. 1959. –с. 27 .
25. Дмитриев Н.К. Грамматическая терминология в учебниках родного языка. 1955.
26. Орузбаева Б.У. Словообразование в кыргызском языке. – Фрунзе, 1964.
27. Урекенова Р. А. Образование терминов в казахском языкеб. Алмата. 980.
28. Гасымов М.Ш. Основы терминологии азербайджанского языка.: Автореф. дис. – Баку, 1972; Azerbajchan dili terminolokijasinin asaslari. – Baku: 1973.
29. Tursunov U. Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek tili (morfologiya, leksika). – Toshkent, 1971.

30. Shoabdurahmanov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyarov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 1980.
31. Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari .-Toshkent, 1966.
32. H.Dadaboyev. XI-XI U asrlar turkiy tillar yozma yodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya . –Toshkent, 1991.
33. Lotte D.S. Osnovi postroeniya nauchno-texnicheskoy terminologii. – M.: Izd-vo AN, 1961. – S.7-8.2 Nurmonov A. va boshq. Hozirgi O'zbek adabiy tili. – T.: Sharq, 2002. –B. 62-63.
34. Потебня А. А. Из записок по русской грамматике.–М., 1958. С. 19
35. Лингвокультурология: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: “Академия”, 2001. Б.59.
36. В.В.Воробьев. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания. Тверст Давлат университети. 2001. Б.103.
37. Российская грамматика. Наставление первое
38. Ольшанский И.Г. Лексика, фразеология, текст: лингвокультурологические компонентк [Текст]//Язык и культура: сб. обзоров. М., 1999. –Б 18-19.
39. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений / В.А. Маслова. – М. : Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.
40. Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. М., 1966.
41. В.И.Карасик «Языковой круг: личность, концепты, дискурс». Волгоград, 2002
42. Телия В.Н. Основные постулаты лингвокультурологии / В.Н. Телия // Филология и культура : материалы II междунар. конф. 12–14 мая 1999 г. : в 3 ч. / отв. ред. Н.Н. Болдырев. – Тамбов : Изд-во ТГУ, 1999. – Ч. III. – С. 14–15.
43. В.В.Воробьев. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания. Тверст Давлат университети. 2001. Б.101

44. В.Н.Телия. О методологических основаниях лингвокультурологии // Логика, методология, философия науки. Тезисы докладов. М.-Обнинск, 1995. Б.89
45. В.В.Воробьев. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания. Тверст Давлат университети. 2001. Б.103.
46. Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. М.: Academia, 2000. Б.113.
47. Tulenov J. , G'ofurov Z. Falsafa. –Toshkent, 1997; Андреев И. Д. Диалектическая логика. –Москва, 1985; Панфилов В. З. Философские проблемы языкознания. Гносеологические аспекты. –М.: Наука, 1977.
48. Лингвистический энциклопедический словарь. –М 1990.
49. Никишина И.Ю. Язык сознание коммуникация. // “Понятие концепт в когнитивной лингвистике”. – М., 2002. – № 21. – С.5-7.
50. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Изд.2-е, испр.и доп[Текст]/Ю.С. Степанов. – М.: Академический проект, 2001. – 590 с.
51. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 895 с.
52. Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Московский гос. ун-т, 1996. – С.31.
53. Степанов, Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Изд. 2-е. – М.: Академический проект, 2001. – С.43.
54. Леонтович О.А. Россия и США: Введение в межкультурную коммуникацию. – Волгоград, 2003. – С.117.
55. Рябкова Е.С. Альманах современной науки и образования // “Лингвокультурный концепт как элемент языка и культуры”. – М., 2012. – №4 (59). – С.187.
56. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – М.: Тетра Системс, 2004. – С.36.

57. Рябкова Е.С. Альманах современной науки и образования // “Лингвокультурный концепт как элемент языка и культуры”. – М.:, 2012. – №4 (59). – С.187.
58. Декларация прав культуры и ее международное значение // Д. С. Лихачев – Университетские встречи. 16 текстов/ науч. ред. А. С. Запесоцкий; СПбГУП. – СПб., 2006. – С. 34 – 37.
59. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 176.
60. Hamidov X., Azzamova N., Turkcha ijtimoiy-falsafiy va siyosiy terminlar tarjimasiga doir, Tarjima masalalari, ilmiy maqolalar to'plami. – T.: , 2012. – B 132
61. Рябкова Е.С.Альманах современной науки и образования // “Лингвокультурный концепт как элемент языка и культуры”.–М.:, 2012.– №4(59). –С.187.
62. Декларация прав культуры и ее международное значение // Д. С. Лихачев – Университетские встречи. 16 текстов/ науч. ред. А. С. Запесоцкий; СПбГУП. – СПб., 2006. – С. 34 – 37.